

**OQILXON IBROHIMOV**

# **MUSIQA**

**4-sinf uchun darslik**

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 7-nashri

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi nashrga tavsiya etgan

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2020

UO'K 78 (075)  
KBK 85.31ya71  
I-32

### **Taqrizchilar:**

**G. G'aniyeva** – Respublika ta'lif markazi amaliy fanlar bo'limi metodisti;

**Sh. Hakimova** – Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-maktabning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

### **Ekspertlar:**

**M. Ahmedov** – O'zbekiston davlat konservatoriysi musiqa ta'limi kafedrasi mudiri;

**E. Nurmanov** – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti;

**V. Gapparova** – Toshkent shahar Uchtepa tumani 203-maktabning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

### **Ibrohimov O.**

Musiqa: 4-sinf uchun darslik . Qayta ishlangan va to'ldirilgan 7-nashri.  
— T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.— 112 b.

**UO'K 78 (075)**  
**KBK 85.31ya71**

**ISBN 978-9943-6106-7-5**

© **O. Ibrohimov**  
© **G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-2020**

## SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi! Har bir xalqning orombaxsh kuyohanglari, qo‘sishq-aytimlari, bir so‘z bilan aytganda, milliy musiqasi bo‘ladi. Xalq musiqasi ko‘p va uzoq asrlik sinovlardan o‘tgan va qalbimizga jo bo‘lgan ma’naviy boyligimizdir.

Xilma-xil cholg‘ularimiz va ularda sadolanib kelayotgan milliy navolarimiz esa ana shu ma’naviy boylikning ajralmas qismidir.

Qo‘lingizdagi darslik sizlarni ana shunday ma’naviy go‘zallik va boyliklardan bahramand etish istagida yozilgan.

Unda xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati va turli bayram marosimlari bilan bog‘liq qo‘sishqlari, milliy cholg‘ulari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishasiz, noyob kuy-qo‘sishqlarni tinglaysiz, ulardan ayrim namunalarni kuylashni o‘rganasiz. Shuningdek, O‘zbekiston bastakorlari va kompozitorlarining Siz o‘quvchilar uchun ijod etgan qo‘sishqlari bilan tanishasiz!

Darslikda qo‘llangan quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:

- |  |                       |  |                          |
|--|-----------------------|--|--------------------------|
|  | — musiqa tinglash;    |  | — mustaqil o‘qish;       |
|  | — aytim mashqlari;    |  | — savol va topshiriqlar; |
|  | — qo‘sish kuylash;    |  | — musiqa savodi;         |
|  | — nota bilan kuylash; |  | — QR kod.                |



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

**Abdulla Oripov**

SO'zi Tantanavor

**Mutal (Mutavakkil) Burhonov**

musiqasi

The musical score consists of ten staves of music for voice and piano. The vocal part is in common time, treble clef, and key signature of one sharp. The piano part is in common time, bass clef, and key signature of one sharp. The lyrics are written below the vocal line. The score includes dynamic markings such as *f*, *ff*, *p*, *mf*, and *ff*. The lyrics are:

1. Ser-qu-yosh, hur o'l-kam, el-  
ga baxt, na-jot, Sen o'-zing do'st-lar-ga yo'l-dosh, meh-ri-  
bon! Meh-ri-bon! Yash-na - gay to a-bad il-  
mu fan, i-jod, Shuh-ra-ting por-la-sin to-ki bor  
hon! Oi-tin bu vo-diy-lar jon O'z-be-kis  
ton, Aj-dod-lar mar-do-na ru-hi sen-ga yor!  
xalq qud-ra-ti jo'sh ur-gan za-mon, O-lam-ni mah-li-yo ay-la

1.

gan di- yor!

2. Bag' - ri

gan di- yor!

Serquyosh, hur o'l kam, elga baxt, najot,  
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
 Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod,  
 Shuhrating porlasin toki bor jahon!

### Naqarot:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
 Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
 Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
 Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

### Naqarot.

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,  
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
 Olamni mahliyo aylagan diyor!



## BIRINCHI CHORAK

### O'ZBEK XALQ AYТИMLARI

#### 1-dars. VATANIMIZNI MADH ETAMIZ



Mustaqil Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasida qadimiylar va yangi zamondagi an'analarini o'zida mujassam etgan musiqa san'ati keng ko'lamda rivoj topmoqda. Bunda xalq musiqa ijodi va xalq havaskorligi, mumtoz musiqiy meros va basta-

korlik, kompozitorlik ijodiyoti va musiqiy estrada kabi qatlamlar namoyon bo'ladi. Bularning har biri o'ziga xosligi va badiiy an'analar bilan qadrlidir.

O'zbekiston bastakorlari va kompozitorlari mustaqil Vatanimizni madh etuvchi ko'plab musiqa asarlarini yaratdilar. Bugun ona yurtimizda yangrayotgan go'zal ohanglar milliy musiqa-miz dovrug'ini jahonga taratmoqda.

Bu borada, ayniqsa, 1997-yildan buyon ko'hna Samarqand shahrida har ikki yilda bir marotaba muntazam o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining ahamiyati beqiyos bo'limoqda. Mazkur bayramona tadbir bois bebahoh milliy musiqamiz xalqaro sahnalar sari dadil odimladi va jahon ham-

jamiyatni e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ayni vaqtida, jona-jon diyorimizda yosh avlodga milliy va jahon mumtoz musiqasi asosida ta'lim-tarbiya berish yo'lida muhim ishlar amalga oshirilayotgani quvonarlidir.



### **Oddiy musiqa shakllari. Band shakli**

Har bir musiqa asari muayyan tuzilishga ega bo'ladi. Uning ana shu tuzilishi esa musiqa shakli deb ataladi. Musiqa shakllari asarlarning qaysi janrda yaratilganligi va katta-kichikligiga qarab turlicha bo'ladi. Eng oddiy musiqa shakllarini xalq qo'shiqlarida uchratish mumkin.

Xalq qo'shiqlari, odatda, band shaklida bo'ladi. Bu shakl to'rt she'riy misra va unga uyg'un to'rt kuy tuzilmasidan tarkib topadi. Bunga, jumladan, "Oh, layli", "Oyijon" kabi xalq aytimlari misol bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalq musiqa ijodida naqarotli band shakli ham ko'plab uchraydiki, bunda she'riy misralari o'zgaruvchan har bir band orasida kelgan naqarot o'zgarmasdan takrorlanib turiladi. Bunday shakllar, asosan, yalla janri aytimlariga xosdir.

- ??!
1. Oddiy musiqa shakllariga qanday qo'shiqlar kiradi?
  2. Band va naqarotning farqini aytинг.
  3. O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining mualliflari kimlar?

## **2-3-dars. XALQ AYTIMLARI. LAPAR**

Lapar ikki kishi yoki tarafma-taraf bo‘lgan ko‘pchilik tomonidan aytishuv tarzida kuylanadi. Bunda taraflar birin-ketin, navbatma-navbat “savol-javob” shakliga qurilgan she’riy to‘rtliklarni kuylaydilar. Xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan “Oyijon”, “Qoraqosh”, “Qilpillama” kabi laparlar shunday aytimlar jumlasidandir. Bolalarning “Oq terakmi, ko‘k terak” aytim-o‘yini ham lapar xususiyatlariga ega.

Ba’zan laparlarda raqs xarakteriga ega doira usullari ham qo’llanib, bu holat goho laparchilarning navbatma-navbat raqsga tushib, aytim kuylashlariga sabab bo‘ladi.



## OYIJON

**Jonli**

**O'zbek xalq lapari**

The musical score consists of two staves of music in 2/4 time. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one flat, and a basso continuo staff below it. The second staff begins with a treble clef, a key signature of one flat, and a basso continuo staff below it. The lyrics are written below each staff, corresponding to the musical notes.

**Jonli**

**O'zbek xalq lapari**

O - yi - - jon      o - yi - - jon - ey      bosh- gi - nam  
riy - di - ya.      Bosh - gi - nang - dan      o - nang o'r  
Ni-ma - lar- ga      og' - - riy - di - ey?      Bo - zor - lar  
lar e - kan,      Do' - kon - lar - da tu - - rar e - kan,  
A - na shu - ning o - ti      i- pak ro' - mol      O' - shan- ga og' -  
riy - di - ya,      O' - shan - ga og' - - ri - sa  
a - lam - - jon,      a - lam - - o.



Oyijon, oyijon-ey, boshginam og'riydi-ey,  
Boshginangdan onang o'rgilsin,  
Nimalarga og'riydi-ey?

Bozorlarda bo'lar ekan,  
Zargarlarda turar ekan,  
Ana shuning oti tilla baldoq  
O'shanga og'riydi-ya,  
O'shanga og'risa-ya, alamjon, alamo.

Laparlarni bastakor va kompozitorlar ham ijod qiladilar. Bunga, jumladan, kompozitor Mardon Nasimovning "Bizdan sizga kim kerak?" aytim-o'yini misol bo'lishi mumkin.



## BIZDAN SIZGA KIM KERAK?

**Y. Qurbonov** she'ri

**M. Nasimov** musiqasi

*mf* O'rtacha tezlikda

Qo' - zi - choq - dek sak- ra - shib, sak - ra - shib,  
di- kir di- kir o'y-nay - miz, o'y-nay - miz. Er- kin qush-dek

*piu mosso*

kuy- lay - miz.                    Oq te- rak - mi, ko'k te -  
 biz-dan siz- ga kim ke- rak?       Ay- tin-giz, kim ke-rak?

**Q i z I a r:** Qo'zichoqdek sakrashib, sakrashib,  
 Dikir-dikir o'ynaymiz, o'ynaymiz.  
 Erkin qushdek yayrashib, yayrashib,  
 Sho'x-sho'x qo'shiq kuylaymiz,  
 kuylaymiz.

Oq terakmi, ko'k terak,  
 Bizdan sizga kim kerak?  
 Aytingiz, kim kerak?

**B o l a l a r:** "Gulchehra kerak".

Maysazorda jo'sh urib, jo'sh urib,  
 Gijinglagan toychoqmiz, toychoqmiz.  
 Bir mayizni qirq bo'lib, qirq bo'lib,  
 Yeganlardek inoqmiz, inoqmiz.

Oq terakmi, ko'k terak,  
 Bizdan sizga kim kerak?  
 Aytingiz, kim kerak?

**Q i z I a r:** "Baxtiyor kerak".

H a m m a: Bog‘chamizning guliga, guliga,  
Mehr qo‘yib qaraymiz, qaraymiz.  
Baxmal gullar qo‘ynida, qo‘ynida  
Kapalakdek yayraymiz, yayraymiz.



## Musiqaning ifoda vositalari

Bastakor yoki kompozitor musiqa asarini yaratishda kuy, ritm, lad, usul, dinamik belgilar kabi ifoda vositalarini qo‘llaydi. Musiqada kuy va ritm eng muhim ifoda vositalaridan hisoblanadi. Bunda kuy bir ovozda bayon etilgan musiqiy fikrni ifodalasa, ritm esa tovushlarni vaqt nuqtai nazaridan bir tartibga solish uchun xizmat qiladi.

- ?! 1. Musiqani ifoda vositalari haqida so‘zlab bering.  
2. “Bizdan sizga kim kerak?” aytim-o‘yin qo‘srig‘ining mualliflari kimlar?

### 3. Lapar aytimini toping:

- A) “Qoraqosh”, “Oyijon”.  
B) “Maktab”, “Qoraqosh”.  
Д) “Maktab”, “Bilaguzuk”.

## 4-5-dars. YALLA

Yalla ko‘pgina xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, ijroda ko‘pchilik ishtirok etishi bilan laparga yaqin bo‘lgan janrdir. Ammo laparda eng avvalo, tarafma-taraf aytishuv holati muhim bo‘lgani holda, yallada she’r, kuy va raqsning mushtarakligi

nisbatan muhimdir. Shuningdek, yalla lapardan farqli o'laroq, band-naqarot shaklida bo'ladi. Bunda yallachi (yakkaxon) raqs-o'yinga tushib bandlarni kuylasa, naqarotni ko'pchilik birgalikda aytadi. Yallalarda raqsbop doyra usullari va turfa cholg'ulardan iborat ansambl jo'rnavozligi qo'llanilishi mumkin.



## YALLAMA YORIM

### O'rtacha tez

Qal-dir - g'och qo - ra e - kan, qa - no

la e - kan, yosh-liq - da-gi o'r - toq - lar bir u

do'st e - kan. Yal-la-ma yo - rim, yal-lo- la, yal- lo - la -

shay - lik, o'r- toq - la - shay - lik, uch

bir bo' - lib, suh - bat - la - shay - lik.

### O'zbek xalq yallası



## SHAFTOLIGA SAVOLIM

**P. Mo'min** she'ri

**N. Norxo'jayev** musiqasi

### Quvnoq

Shaf-to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf- to-lim, oh, shaf- to  
Qi - zi - lu oq, qi - zi - lu - oq, qi - zi  
shaf - to - lim. Ham - ma men - day se - va - di,  
Pish- gan - da ma - za bo - lim, Shaf-to - lim,  
Shaf - to - lim...


Shaftolim, oh, shaftolim, (oh),  
Qizil-u oq shaftolim.  
Hamma menday sevadi,  
Pishganda maza bolim,  
Shaftolim...

Asta aytib, asta aytib, asta  
 aytib beraqol,  
 Seni topgan, seni topgan, seni  
 topgan qay olim?  
 Indamadi shaftolim,  
 Qiyin ekan savolim,  
 Shaftolim.



## USUL

Usul – o‘zbek milliy musiqasining muhim ifodaviy vositasi bo‘lib, u zarbli cholg‘ular (doyra, nog‘ora v.b.) – da ijro etiladi. Demak, usul zarbli cholg‘ularda hosil etiladigan o‘zgarmas takroriy ritm tuzilmalaridir. Usul, odatda, ikki tovush asosiga qurilgan bo‘ladi. Bu tovushlarni ustozlar doyra cholg‘usida “bak” va “bum” deb ataydilar. “Bak” tovushi doyraning gardishi (chetki qismi) tomon zarb berilishidan hosil bo‘ladi, “bum” tovushi doyraning o‘rta qismiga berilgan zarb tovushidan yuzaga keladi va “bak” tovushiga nisbatan quyi (past) tovush hisoblanadi. Usullarni notalar vositasida ham yozish mumkin. Buning uchun bir chiziqli nota yozuv tizimidan foydalilanadi. Bunda “bak” tovushi chiziqning ustiga, “bum” esa chiziqning ostiga nota bilan yozib qo‘yiladi.



- ?! 1.** Yalla janri haqida gapirib bering.  
**2.** Yalla janri qaysi jihatlari bilan lapardan farq qiladi?  
**3.** “Shaftoliga savolim” qo’shig‘ining mualliflari kimlar?

## **6-7-dars. RAMAZON MAROSIMI AYTIMLARI**

Ramazon marosimi hijriy-qamariy (oy) taqvim bo'yicha muborak ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab kattalar yoki bolalar ishtirokida o'tkaziladi. Bunda marosim ishtirokchilari bo'lgan ramazonchilar kun botgandan so'ng har bir xonadon eshigi oldida to'planishib, yaxshi niyat-istiklar bilan "Ramazon" yoki "Yo, Ramazon" aytimini kuylashadi. Bunga javoban uy egalaridan turli pishiriq va hadya-ehsonlar olishadi. Xilma-xil ko'rinishlarda mavjud bo'lgan ramazon aytimlari mazmunan o'zaro yaqin bo'ladi. Jumladan, ularning she'riy to'rtliklarida xonadon egalariga nisbatan yaxshi istak va ezgu niyatlar bildiriladi, ba'zan esa hazil-mutoyiba, mazmunli bandlar ham kuylanadi.

### **⦿ Ramazon marosimi aytimlaridan namuna tinglang.**

Ramazonning uch kunini tutib keldik sizga,  
Ramazonning zakotini bering bizga.  
Yo Ramazon aytib keldik eshicingizga,  
Qo'chqordek o'g'il bersin beshicingizga.



## NISHOLDA

R. Tolib she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

**Quvnoq**

To'y- da, bay-ram-da, Ro'za ay-yom-da, Tan- siq ni-shol- da,  
Tor- tiq ni-shol- da. Muz-qay-moq-dan zo'r, ma-na, ya-lab ko'r.  
Naqarot:  
Oh-oh ni - shol- da, op-poq ni-shol- da, Ma-za - li, tot - li- oh!  
Mis-li nov - vot - li - oh! Oh- oh ni-shol- da,  
op- poq ni- shol - da! Muz-qay - moq dan zo'r - oh!  
Ma-na ya-lab ko'r-oh! Oh oh - oh ni - shol- da,  
1. qay - moq ni- shol- da! 2. Qay - moq ni-shol - da!

1. To'yda, bayramda,  
Ro'za ayyomda  
Tansiq nisholda,  
Tortiq nisholda.

Muzqaymoqdan zo'r, oh!  
Mana, yalab ko'r, oh!  
Oh-oh nisholda,  
Qaymoq nisholda.

Muzqaymoqdan zo'r,  
Mana yalab ko'r,  
Oh-oh nisholda,  
Oppoq nisholda.

2. Buncha ham shirin,  
Kim bilar sirin?  
Oh-oh nisholda,  
Qaymoq nisholda.

Na qarot:

Mazali, totli, oh!  
Misli novvotli, oh!  
Oh-oh nisholda,  
Oppoq nisholda.

Mehmonga yuzim,  
Xizmatda o'zim.  
Tayyor nisholda,  
Mador nisholda.

Na qarot.



### DINAMIK BELGILAR

Dinamik belgilar – musiqa asarining badiiy ifodaviyligini kuchaytirish uchun qo'llaniladigan maxsus belgilar bo'lib, ular odatda, qisqartirilgan holda beriladi.

*p* (piano) – asarni ohista (mayin) ijro etish belgisi.

*f* (forte) – asarni kuchli (qattiq) ijro etish yoki kuylash belgisi.

U odatda nota yo'lining ustiga qo'yiladi



- ?! 1. Ramazon marosimiga mansub qanday qo'shiqlarni bilasiz?  
2. "Nisholda" qo'shig'ining she'rini yod oling.  
3. Dinamik belgilar haqida gapirib bering.

## 8-dars. ALLA AYTIMLARI

Xalqimizda mavjud odatga ko'ra, oilada yangi tug'ilgan to'ng'ich farzand sharafiga beshik to'yি marosimi o'tkaziladi hamda shu vaqtdan e'tiboran chaqaloq hayotida muhim bo'lgan 2–3 yillik "beshik davri" boshlanadi. Ona chaqaloqni uxlatish maqsadida beshikni tebratib, qo'shiq kuylaydi. "Beshik vaziyati" bilan aytiladigan bunday aytim "Alla" yoki "Beshik qo'shig'i", deb ataladi. Onalar ijodi bo'lgan bu aytimlarda bolani ovutishga qaratilgan so'z-iboralar, shuningdek, onaning farzandi haqidagi orzu-niyatlari bayon qilingan to'rtliklar badiha etiladi. "Alla eshitgan bola kelajakda o'z ota-onasiga mehrli, iymonli, e'tiqodli, ona tuprog'iga, el-yurtiga sodiq, vatanparvar, insonlarga hamdard bo'ladi"<sup>1</sup>.

○ "Alla" aytimini tinglab, undan olgan taassurotingizni gapirib bering.



### ALLA

#### Ohista

The musical notation consists of two staves. The top staff is in 2/4 time and the bottom staff is in 3/4 time. The lyrics are as follows:

Al- la ay - tay, jo- nim  
Al -la ay - tay, jo- nim  
bo - lam, qu - loq sol - gin  
bo - lam, shi- rin qo' - zim al - la.  
al - la.

#### O'zbek xalq aytimi

<sup>1</sup> Asrlarga tengdosh qo'shiqlar. Tuzuvchilar: Y. Abdurahmonov, J. Eshonqulov. Toshkent. 1991yil, 5-bet.

Shi-rin al-lam, ting-lab as-ta  
 Sen qu-von-chim, if-ti-xo-rim,  
 ux-lab qol-gin al-la.  
 ko'-rar ko'-zim al-

Alla aytimlari bastakor va kompozitorlar tomonidan ham ijod etiladi. Jumladan, avstriyalik kompozitor Wolfgang Amadey Motsartning “Alla” aytimi mashhur bo‘lib, u o‘zbek tilida shunday kuyylanadi:

### ALLA



**V. Motsart** musiqasi

#### Shoshmasdan

Yot bo-lam, ux-la qo'  
 Uy-lar-da o'ch-di chi-  
 Ux-lar-a-sal-a-ri-  
 Ux-lar-ba-liq-lar-tinch-

Ko'k - da oy yar - qi - ray -  
 De - ra - za - dan qa - ray  
 Ko'z - la - ring yum - gin qo' -  
 Yot, qu - von - chim, qun - du - zim  
 la - la - la



## OYIJONIM ALLASI

**T. Mahmudov** she'ri  
Shoshmasdan

**F. Alimov** musiqasi

Yo-qim - li, shi - rin bi - ram  
 o - yi - jo - nim al - la - si,  
 Dil-ga baxsh e-tar o - rom o-yi - jo- nim,

o - yi - jo - nim, o - yi - jo - nim al  
 1. 2.  
***S*** *mp*  
 Ux - la, ux - la, qo' - zim, der,  
 Sen su- yan- gan to - g'im, der,  
 Gul - ga to'l - dir bo- g'im, der, jon (ey).  
 O - yi - jo - nim, o - yi - jo - nim.  
 1. 2.  
 o - yi - jo - nim al - la- si.  
 O - yi - jo - nim al - la- si.

## **“ALLA” HAQIDA RIVOYAT**

Rivoyat qilishlaricha, jannatdan quvilgan Odam Ato bilan Momo Havo bir-birlariga ko'ngil qo'yishib, egizak farzand ko'rishibdi. Xudoning bu marhamatidan boshi osmonga yetgan Odam Ato shikorga<sup>1</sup> ketibdi. Hamma yoq osoyishta bo'lib, yer yuzidagi bu jimlikni faqatgina ikki chaqaloqning betoqat yig'lagan ovozi buzar ekan. Momo Havo nima qilishini bilmay turganida uning yuragiga qandaydir bir jozibali alla qo'shig'i kelgan ekan:

Alla, bolam, baxtiyor,  
Har ishning ham vaqtি bor.  
Otang ketgan shikorga,  
Alla, bolam, alla yo.



---

<sup>1</sup> Shikor — ov.

Aytishlaricha, yer yuzida paydo bo‘lgan birinchi go‘dakka aytilgan alla mana shunday boshlangan ekan... Yer yuzidagi jamiki qo‘shiqlar ona allasidan boshlangan. Biz tinglab orom olayotgan eng yaxshi qo‘shiqlarning kelib chiqishi ham ona allasiga borib taqaladi.

(“Asrlarga tengdosh qo‘shiqlar” kitobidan.)

## 9-dars. BOLALAR XALQ O‘YIN-QO‘SHIQLARI

Uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan bolalar qo‘shiqlari o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularda yosh avlodning jo‘shqin hayoti, yil fasllari va turli bayramlarga munosabati o‘ziga xos ifoda etiladi.

Bolalar qo‘shiqlarining ko‘pchiligi o‘yin bilan yoki o‘yin vaziyatida aytilgan. Bahor faslida kuylangan “Binafsha”, “Chittigul”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi” singari qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Masalan, bahor chog‘i yomg‘ir shivalab yog‘arkan, shu fursatda quvongan bolalar o‘yinga berilib, mutoyiba ila “Yomg‘ir yog‘aloq” qo‘shig‘ini kuylaydilar.



## YOMG'IR YOG'ALOQ

O'zbek xalq qo'shig'i

### O'rtacha tez

Yom - g'ir yo- g'a-loq, yam-ya-shil o't- loq, En -  
 e - kin - lar chi- qa - rar qu - loq, Yash-na  
 la, o-chil - sin lo - la, Da- la qo'y-ni  
 da oq - sin sha - lo - la.

### Naqarot:

Tarnovdan toshib,	Yashnasin dala,	Yomg'irdan foyda,
Oqadi shoshib.	Ochilsin lola.	Maysaga, donga.
Ariqlar to'lar	Dala qo'ynda	El serob bo'lar
Zo'r anhor bo'lib.	Oqsin shalola.	Paxtaga, donga.

## OQ TERAKMI, KO'K TERAK

### O'rtacha tez

O'zbek xalq qo'shig'i

Oq te - rak- mi, ko'k te - rak, biz- dan siz



## MAKTAB

**K. Turdiyeva** she'ri

**J. Abdurahmonov** musiqasi

### O'rtacha tez

Bu qan-day a - ziz dar- goh, Mu-qad-das  
 biz-ga har- chog'. Bi - lim, deb bosh-lar yo'l - ga, biz -lar-ni  
 ta-nish yo'l - ka. Qi - la -san hi -sob-ki- tob, be ra- san sa-  
 vol - ja - vob. Qo'-ling-da daf - tar - qa - lam,  
 ga qu-vonch-li o- lam! U-ni so'z-lay-miz maq - tab, U -ni  
 a - tay-miz - "Mak - tab!" Un - da har ku - ni  
 noq ja-rang-lay-di ja-rang-lay-di qo'n-g'i -roq.



O'quvchi, ustoz yurti,  
Uning ishi – “O'qi, yoz” yurti.  
O'rgatadi do'stlikka,  
Doim to'g'riso'zlikka.

Qilasan hisob-kitob,  
Berasan savol-javob.  
Qo'lingda daftар-qalam,  
Unda quvonchli olam!

### Naqarot:

Uni so'zlaymiz maqtab,  
Uni ataymiz – “Maktab!”  
Unda har kuni quvnoq  
Jaranglaydi qo'ng'iroq.





## Lad. Do major tonalligi

Lad so'zi "to'g'ri", "bir-biriga mutanosib, hamohang tovushlar" kabi ma'nolarni bildiradi. Har bir qo'shiqning kuyi esa bir-biriga o'zaro bog'langan tovushlar asosida yuzaga keladi. Demak, lad – bu o'zaro uyushib kelgan ohang tovushlarining tuzilmasidir. Agarda biz shu tovushlarni tayanch pardadan boshlab yuqoriga qarab tuzib chiqsak, to'g'ri tovushqator (zinapoya) hosil bo'ladi. Lad musiqiy asar xarakterini belgilashda muhim omildir.

Do major tonalligining asosiy tayanch pardasi (tonikasi) "do" tovushidir.

Mazkur major tovushqatori "do" pardasidan boshlanib yuqoriga qarab quyidagicha tuziladi:

I    II    III    IV    V    VI    VII    VIII

Musiqada xilma-xil ladlar uchraydi, ammo "**major**" va "**minor**" deb ataluvchi ladlar keng ommalashgan, ular turlicha xarakterga ega.

Bardam, quvnoq, yorug' kuylarga major ladi mosdir. Qayg'uli va g'amgin kuylarga minor ladi mosdir.

- ?! 1. "Yomg'ir yog'aloq" xalq qo'shig'ini tafsiflang.  
2. "Oq terakmi, ko'k terak" xalq qo'shig'ini yod oling.  
3. Domajor tovushqatorini kuylab bering.

## IKKINCHI CHORAK

### XALQ QO'SHIQLARI VA RAQSLARI

#### 1-dars. XALQ QO'SHIQLARI

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ajralmas qismini qo'shiq-aytimlar tashkil etadi. Mavzu va mazmun jihatidan xilma-xil bu qo'shiqlar o'zida xalq hayoti, turmush tarzini ifoda etadi. Shu bilan birga qo'shiqlarda odamlarning ona-Vatanga, tabiatga, atrof-muhitga, oila va yor-u do'stlariga mehr tuyg'ulari badiiy aks etadi.

Xalq qo'shiqlari dastlab el orasidan chiqqan dehqonlar, hunarmandlar, xizmatchilar va ziyolilar tomonidan turli vaziyatlarda to'qilgan. Biroq ko'p hollarda ularning nomlari bizga noma'lum bo'lib qolgan, chunki yangi yaratilgan qo'shiq, odatda, yozib olinmagan, balki og'zaki ravishda aytilgan va shu asnoda (yo'sinda) bir aytuvchidan ikkinchisiga, otadan o'g'ilga, bobolardan nabiralarga o'tib, omma orasida yoyilgan. Shu tarzda o'zbek xalq qo'shiqlari ajdodlardan avlodlarga ma'naviy meros bo'lib, bizga qadar yetib kelgan.

Xalq qo'shiqlarini aytish vaziyati va mazmuniga ko'ra "Mehnat qo'shiqlari", "Oilaviy (to'y) marosim qo'shiqlari", "Mavsum aytimlari" va "Bolalar qo'shiqlari" kabi turlarga ajratish mumkin. Bulardan tashqari, madaniy hordiq chiqarish paytida aytishga mo'ljallangan lapar, yalla va ashula kabi aytimlar xalq orasida keng tarqalgan.

## QO'SHIQ

Qo'shiqlar ko'proq 7 yoki 8 bo'g'inli she'riy bandlar asosida (jo'rsozlarsiz) aytildi. Bunda bandlar orasida takrorlanib turuvchi maxsus naqarot misralari bo'lmaydi.



### OH, LAYLI

O'zbek xalq qo'shig'i

**Quvnoq**

Tom bo-shi-da to-g'o - ra, Tan-dir to' - la zo -  
-ra, Zo- g'o- ra- ni yo - pol - may (o'r-  
Cho - lu kam - pir o - vo - - ra.

Bolalarning "Tomdan tarasha tushdi", "Olatoy", "Chuchvara qaynaydi" singari aytimlari ham qo'shiq janriga misol bo'lishi mumkin.




## OFTOB CHIQDI OLAMGA

O'rtacha

O'zbek xalq qo'shig'i

The musical notation consists of four staves of music for a single melodic line. The first staff starts with a treble clef, a 2/4 time signature, and a key signature of one sharp. The lyrics are: Of - tob chiq - di o - lam - ga, yu - gu- rib. The second staff continues with the same time signature and key signature: xo - lam - ga. Xo - la, xo - la kul - cha. The third staff changes to a common time signature and a key signature of one flat: xo- lam de- di o' - tin ter, O' - tin ter-. The fourth staff concludes with the same time signature and key signature: bir qu - choq, non yop - dim o' - choq, o' - . The music ends with a double bar line.





## Lya minor tovushqatori

Avvalgi darslarimizda aytib o'tilganidek minor ham asosiy ladlarning bir turidir. Odatda, minor ladida mayin, qayg'uli va g'amgin kuylar yaratiladi.

Lya minor tonalligining asosiy tayanch pardasi (tonikasi) "lya" tovushidir.

Mazkur minor tovushqatori "lya" pardasidan boshlanib yuqoriga qarab quyidagicha tuziladi.

A musical staff in G clef. The notes are: e, o, e, o, e, o, o, o. Below the staff are Roman numerals I through VIII(I).



## Lya minor

### O'rtacha tez

Musical notation for "O'rtacha tez" in Lya minor. The first staff shows a continuous eighth-note pattern. The second staff begins with an eighth-note pattern, followed by a sixteenth-note pattern, and ends with a dotted half note.



1. Xalq qo'shiqlari haqida gapiring.
2. "Qo'shiq" deganda nimani tushunasiz?
3. "lya minor" tovushqatorini kuylab bering.

## 2-3-dars. XALQ RAQSLARI

Raqs – bu san'at turi bo'lib, unda insoniy tuyg'ular, ma'lum bir voqealar qo'l, oyoq va tana harakatlari orqali ifoda etiladi. Har bir xalqning sevimli kuy-qo'shiqlari bo'lgani kabi milliy raqslari ham bor.

O'zbek xalqining ana shunday raqslari qatorida "Lazgi", "Dilxiroj", "Tanavor", "Andijon polkasi" kabilarni aytish mumkin. Bu raqslarga, odatda, turli xalq bayramlarida, to'y-marosimlari va oilaviy yig'inlarda o'yinga tushilgan.

Xalq raqslari o'ziga xos milliy jihatlarga ega bo'lib, ular raqsning kuyi, ritmi va raqqos harakatlarida yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ruslarning "Kamarincha" raqsi o'zgacha jozibasi va ayni paytda, hazilomuzligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi.



### KAMARINCHA (КАМАРИНСКАЯ)



Hazilomuz



Ukrainlarning quvnoq “Gopak” raqsida insonning epchil va chaqqon harakatlari ifoda etiladi.



## ГОПАК

### Чаққон

Musical notation for 'Gopak' in 2/4 time with a key signature of one sharp. The notation consists of three staves of music, each with a treble clef and a sharp sign.

Beloruslarning hayotbaxsh “Bulba” qo’shiq-raqsida kartoshka<sup>1</sup> o’simligining ekilishidan tortib, to hosili yig’ib olingunga qadar mehnat jarayoni tasvirlanadi.



## БУЛЬБА (БУЛЬБА)

### Құндоқ

### Belorus xalq o'yin-qo'shig'i

Musical notation for 'Bulba' in 2/4 time with a key signature of one sharp. The notation consists of three staves of music, each with a treble clef and a sharp sign. Below the notation, there is lyrics in Russian:

Из меш - ка бе - ри кар - тош - ку и пи -  
по - нем - нож - ку; можешь есть е - ё ва -  
иль в мун - ди - ре за - пе - чён - ной. Трам-там-там,

<sup>1</sup> “Kartoshka” so‘zi belorus tilida “bulba” deb ataladi.

Musical notation for the song "Shag'ala". The top staff shows a melodic line with lyrics in Russian: "рам, там - там, без кар - тош - ки". The bottom staff continues the melody with lyrics: "ху - до нам, без кар - тош-ки ху - до -". Measure numbers 1. and 2. are indicated above the staves.



“Shag’ala” (Chag’alay) qoraqalpoq raqsida milliy xalq o‘yin harakatlari qo’shiq aytimi bilan bog‘lanib keladi. Bunda chag’alay qushining baliq ovlash jarayoni turli harakatlar vositasida badiiy tasvirlanadi.



## SHAG'ALA

Quvnoq

Qoraqalpoq xalq o'yin-qo'shig'i

Shaq sha-g'a-la sha-g'a- la Jap- tin bo - yin ja - g'a - la  
I - laysuv-da ba - liq bar A - lal- may-san sha-g'a - la.



VATAN



**X. Rahmat** she'ri

Tantanavor

**X. Hasanova** musiqasi

Kuy - lay-man Va- tan haq - da, So'y-lay-man u-ning haq- da.  
Osh - sin ya-na dov-ru - g'i, O'y-lay- man shu-ning haq - da.  
Va-tan qo-ra ko'-zim - dir,  
Dil - dan chiq - qan so' - zim -

Niyati pok, ulug'dir,  
Diyor gulga to'liqdir.  
U tinchlikka bayroq dor,  
Shum urushga yo'l yo'qdir!

### Naqarot:

Vatan qora ko'zimdir,  
Dildan chiqqan so'zimdir.  
Ardoqlayman onamdek,  
Vatan – xalqim, o'zimdir.

### Tonika

Bolalar, agar e'tibor bergan bo'lsangiz, siz kuylayotgan ko'pgina qo'shiqlar ma'lum bir tovush bilan boshlanib, oxirida yana shu tovush bilan tugaydi. Bunday tovush qo'shiqning asosiy tayanch pardasi yoki tonikasi deb yuritiladi.

Gohida musiqa asari tonika tovushi bilan boshlanmasligi mumkin. Ammo asar oxirida tonika tovushi kelishi shart. Bunga siz kuylayotgan "Vatan" qo'shig'i misol bo'la oladi.

- ?! 1. Xalq raqslari haqida nimalarni bilasiz?  
2. "Vatan" qo'shig'inining mualiflari kim?

## 4-5-dars. MEHNAT QO'SHIQLARI

Mehnat qo'shiqlari — xalq tomonidan yer haydash, hosil yig'ish, tegirmon tortish, ip yigirish kabi jarayonlarda ijom etilgan va kuylangan.

Bajarilayotgan mehnat turiga qarab mazkur aytimlarni chorvadorlik, dehqonchilik va hunarmandchilik qo'shiqlari kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Xususan, dehqonchilik qo'shiqlari ham o'z mavsumiga qarab turlicha bo'lgan. Chunonchi, yer haydash paytida "Qo'sh haydash" (Qo'shchi qo'shig'i) kuylangan bo'lsa, hosilni yig'ib olishda "O'rim qo'shig'i" aytilgan. "Xo'p hayda" qo'shig'i esa xirmon yanchishda kuylangan.



### Xo'p hayda

O'zbek xalq qo'shig'i

O'rtacha

Xo'p hay-da – yo xo'p hay-da, xir-mon-ni qil – gil may-da,  
Xir -mon-ni qil – ma-sang may-da sen-lar – ga ti – nim qay-

Hunarmandchilik qo'shiqlari, asosan, xotin-qizlar tomonidan gilam to'qish, do'ppi tikish va charxda ip yigirish paytida aytilgan. Mehnat qo'shiqlari odatda, band shaklida bo'ladi.



## URCHUQ

O'zbek xalq qo'shig'i

### O'rtacha

E-shik ol-di - da qum-loq, me-ning i-pim yu-ma - ;  
E-lak i - chi - da ke - pak, me-ning ip - gi - nam i

Qo'shiqlarni kompozitorlar ham ijod etadilar. Jumladan, kompozitor Nadim Norxo'jayevning band shaklida yaratgan "Yaxshi bola" qo'shig'ida "yaxshi bola" iborasi naqarot kabi takrorlanib turadi. Bunda qo'shiqning asosiy bandlarini yakkaxon kuylay boshlasa, naqarot kabi takroriy so'zlarini hamma birgalikda aytadi. Ushbu qo'shiqni siz ham shu tarzda kuylang.

▲ Ovoz sozlash mashqlarini bajaring.

### Shoshmasdan



## YAXSHI BOLA

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

### O'rtacha

The musical score consists of two staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a common time signature. The lyrics for this section are:

Ham-ma joy - ga ya - ra - sha - di yax - shi bo  
yax-shi bo-la.

The second staff continues with the same key signature and time signature. The lyrics for this section are:

Uy i-shi-ga qa-ra-sha-di  
yax-shi bo-la yax- shi bo-la.

A repeat sign with a double bar line follows. The third staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a common time signature. The lyrics for this section are:

O'y-nab yu - rib se - vi - na - di o'z - o' - zi-  
yax - shi - li - gi se - zi - la - di yuz ko'

Measure 1 of the fourth staff begins with a treble clef, a key signature of four sharps, and a common time signature. The lyrics for this section are:

yuz - ko' - zi - dan, yuz - ko' - zi - dan,

Coda

Measure 2 of the fourth staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp, and a common time signature. The lyrics for this section are:

ya-shay-ver-sin ham-ma joy-da yax-shi bo-la - yax-shi bo-

The fifth staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp, and a common time signature. The lyrics for this section are:

Kel-ti - ra-di el-ga foy-da yax-shi bo-la, yax-shi bo-

Maktabidan qolmaydi kech,  
 Yaxshi bola-yaxshi bola.  
 Ikki baho olmaydi hech,  
 Yaxshi bola-yaxshi bola.  
 Ish buyursang deydi kulib:  
 “Xo‘p bo‘ladi”, “xo‘p bo‘ladi”,  
 Sheriklari — o‘rtoqlari  
 Ko‘p bo‘ladi, ko‘p bo‘ladi.

Yashayversin hamma joyda  
 Yaxshi bola-yaxshi bola.  
 Keltiradi elga foyda  
 Yaxshi bola-yaxshi bola.



### Turg‘un va noturg‘un tovushlar

Tovushqator bosqichlari rim raqamlari bilan (I, II, III va h.k.) belgilanadi. Ushbu bosqichlar turg‘un (asosiy) va noturg‘un tovushlarga ajraladi. Bunda I, III va V bosqichda kelgan tovushlar turg‘un (yoki tayanch) hisoblanib, ular asosida tonika uchtovushligi ham yuzaga keladi. II, IV VI va VII bosqich tovushlari esa noturg‘un bo‘lib, ular yondosh turg‘un tovushlarga tortilish (yechilish) xususiyatni namoyon etadi. Misol:

A musical staff with a treble clef and four measures. The notes are: measure 1 (I) has a whole note; measure 2 (II) has a half note; measure 3 (III) has a whole note; measure 4 (IV) has a half note; measure 5 (V) has a whole note; measure 6 (VI) has a half note; measure 7 (VII) has a half note; measure 8 (I(VIII)) has a whole note. Measures 9 (I), 10 (II), and 11 (III) are shown below the staff.

- ?! 1. Mehnat qo'shiqlari haqida gapirib bering.  
 2. "Yaxshi bola" qo'shig'ining nota yozuvida uchraydigan qaytarish belgisini aniqlang.  
 3. Do majorda keluvchi turg'un tovushlarni aniqlang.

## 6-7-dars. TO'Y MAROSIMI QO'SHIQLARI



To'y "o'z nomi bilan ya-qin do'st-yor, qarindoshurug' diydoriga, shirin-shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo'shiqqa, kurash-u ko'pkari tomoshasiga, bayram shodiyonasiga, kulgi va quvonchga to'yishdir"<sup>1</sup>.

To'y marosimlarida musiqa muhim o'rinni tutadi. Bunda ham cholg'u musiqa, ham qo'shiq aytimlari namoyon

bo'ladi. Jumladan, to'y marosimlarida karnay, surnay va nog'oralardan iborat ansambl ijrosida sadolangan (taralgan) kuylar aholiga to'y boshlanganligidan xabar beradi va tinglovchida tantanavor bayram kayfiyatini uyg'otadi, raqs o'yinlariga chorlaydi hamda unga jo'r bo'ladi.

To'ylarda, odatda, "Navo", "Navo Charxi", "Begi Sulton" singari kuylar ijro etiladi.

---

<sup>1</sup> M a h m u d S a t t o r. O'zbek udumlari. Toshkent, Fan. 1993-yil, 113-bet.



## SURNAY NAVOSI

O'zbek xalq kuyi



Kelinni kuyovnikiga uzatib borish vaqtida ayollar tomonidan aytildigan "Yor-yor"lar nikoh to'yi marosimining eng go'zal qo'shiq namunasidir. Nikoh to'yining ertasiga ertalab esa kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug'lari va qo'nishnilariga kelin nomidan "Kelin salom" marosimi o'tkaziladi. Maxsus "Kelin salom" aytuvchi tomonidan ma'lum kuy ohanglarida salom aytib turiladi, kelin esa egilib salom qiladi.



## YOR-YOR

**O'rtacha tez**

**Xalq qo'shig'i**

Hay-hay o' - lan, jon o' - lan (o), ke-lin  
 kel-di, yor - yo - ro, ke-lin kel-di, Qo'-shiq  
 bi - lan (o) to'y bi - lan (o), ke-lin kel-



## MUNOJOT

**Vazmin**

**O'zbek mumtoz kuyi**

Hurmatli o'quvchilar! Siz notaga qarab mashq qilgan musiqa namunasi xalqimiz tomonidan qadimdan sevib aytilgan "Munojot" kuyining boshlanish qismidan olingan.

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov (1891 — 1980) ushbu kuya



hazrat Alisher Navoiyning “Sarvi gulro‘ kelmadi” g‘azalini bog‘lab, uning ashula yo‘lini ijod etgan. Bu ashula shunday boshlanadi:

## MUNOJOT



### (**Sarvi gulro‘ kelmadi**)

**Navoiy** g‘azali

**I. Ikromov** musiqasi

#### Vazmin

Ke-cha kel - gum - dur de - bon - - -  
sar-vi gul - - - ro' kel - ma- di - yo...

Agar e’tibor bergen bo‘lsangiz, ushbu “Munojot” ashulasi Siz notaga qarab kuylagan “Munojot” parchasidan ma’lum darajada farq etadi. Jumladan, ashula yo‘lining kuyi 4/4 takt o‘lchovida emas, balki 2/4 takt o‘lchovida berilgan.

I. Ikromov “Cho‘li Iroq” va “Ajam” nomli mumtoz kuylarga ham Alisher Navoiy g‘azallarini bog‘lab, ularni xalqimizga taqdim etgan atoqli san’atkordir. Shu bilan birga I. Ikromov tomonidan ijod etilgan “So‘lim”, “Indamadi”, “Gul teraman saralab”, “Topilmas”, “Qoshi qarosini ko‘ring”, “Ul qaro ko‘z”, “Kim desun” kabi ko‘plab qo‘sishq va ashulalar xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin olgan.



## KULCHA NON

**P. Mo'min she'ri**

**I. Hamroyev** musiqasi

**O'rtacha tez**

1.O-yim yop-di - lar kul-cha, moy kul-cha, moy kul-cha. Ye, de-di - lar  
to'y-gun-cha, to'y-gun-cha, to'y-gun-cha. Kul-cha o'x-shar gul-cha-ga,  
oh, oh, oh. Yu-zim o'x-shar kul-cha-ga, oh.

Naqarot:

Kul-cha no-nu kul-cha non, ko'-ri- ni-shi gul-cha non, kul-cha no-nu  
kul-cha non, ko' - ri - ni - shi gul-cha non, gul - cha  
ko' - ri - ni - shi gul - cha non.

2. Shirinligi o'zimday,  
Issiqligi yuzimday,  
Keling, o'rtoqlar, yeymiz,  
Oyimga rahmat deymiz.

Naqarot:

Kulcha non-u kulcha non,  
Ko'rinishi gulcha non.  
Kulcha non-u kulcha non,  
Ko'rinishi gulcha non.

- ?! 1. To'y marosim qo'shiqlari haqida nimalarni bilasiz?  
2. "Kulcha non" qo'shig'ini yod oling.

## MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1. Qanday qo'shiqlar "Ramazon aytimlari" deb yuritiladi?

- A) Ramazon oyida ijob etiladigan qo'shiqlar.
- B) Bolalar qo'shiqlari.
- D) To'y va marosimlarda kuylanadigan qo'shiqlar.

### 2. "Yalla" deb nimaga aytildi?

- A) Sozandachilar jamoasiga.
- B) Band-naqarot shaklidagi kuy va raqsga.
- D) Torli cholg'uchilar jamoasiga.

### 3. Xalq qo'shiqlari dastlab kimlar tomonidan yaratilgan?

- A) Dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar tomonidan.
- B) Bastakorlar tomonidan.
- D) Kompozitor va shoirlar tomonidan.

### 4. Turg'un tovushlarni aniqlang.

- A) II, IV, VI
- B) I, III, V
- D) I, VII, III


**5. Qanday qo'shiqlar "Mehnat qo'shiqlari" deb yuritiladi?**

- A) Vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar.
- B) Bolalar qo'shiqlari.
- C) Mehnat faoliyati bilan bog'liq qo'shiqlar.

**6. To'y marosim qo'shiqlarini aniqlang.**

- A) "Yor-yor", "Munojot", "Kulcha non".
- B) "Munojot", "Vatan".
- C) "Yor-yor", "Munojot", "Surnay navosi".

**7. Quyidagi savollarni o'qing va katakchalarni to'ldiring.**




1. Band va naqarot shaklidagi aytim hamda raqs janri.
2. Chaqaloqlarning ilk eshitadigan qo'shig'i.
3. Ukrain xalq raqsi.
4. Belorus xalq qo'shiq raqsi.
5. O'zbek milliy zarbli cholg'usi.
6. Ikki kishi yoki ko'pchilik tomonidan kuylanadigan aytishuv.

## UCHINCHI CHORAK

### BAYRAM VA MAVSUM QO'SHIQLARI

#### 1-2-dars. QISH FASLI QO'SHIQLARI

Ma'lumki, qish faslida dehqon ham, yer ham dam oladi. Ana shu kezlarda mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, tengqur bolalar to'planishib gap-gashtaklar o'tkazishgan. Bunday gap-o'yinlar aslida "qish kunlariga mo'ljallangan bo'lib, uzun qish kechalarini obod, mazmunli qilish, ko'ngil yozish uchun tashkil etilgan"<sup>1</sup>.



<sup>1</sup>Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent, Fan, 1993-yil. 122-bet.



## SOVUQ KIMNI IZLAYDI?

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

### O'rtacha tez

The musical score consists of eight staves of music in 2/4 time, featuring a treble clef and a key signature of one flat. The lyrics are written below each staff, corresponding to the notes. The first two staves are as follows:

So-vuq kim-ni iz - lay - di,  
Sha-mo - li g'iz - g'iz - lay - di.

The third staff begins with "Bi - la - siz - mi," followed by a melodic line with a fermata over the note "so-vuq" and the text "Naqarot:" below it. The fourth staff continues with "Naqarot:" and ends with "di." The fifth staff starts with "Bo'l - sa lan - ju dan - ga - sa," followed by "Tug - ma - si - ni taq - ma - sa," and "So - vuq". The sixth staff begins with "Tug - ma - si - ni taq - ma - sa," followed by "Un-dan g'o-lib chi - qa - di," and "Un-dan g'o-lib chi - qa - di." The final two staves contain the concluding lyrics: "Kiyinvolib, shaylanib, Yursa o'ynab, aylanib, Bo'shashmasa kim agar Sovuq unga bo'yin egar."

Kiyinvolib, shaylanib,  
Yursa o'ynab, aylanib,  
Bo'shashmasa kim agar  
Sovuq unga bo'yin egar.

## Naqarot:

Bo'lsa lanj-u dangasa,  
Tugmasini taqmasa,  
Sovuq tezda yiqadi,  
Undan g'olib chiqadi.


Quvontirib yana-da,  
Uchiradi chanada.  
Bo'ling, deya, qahramon  
O'ynatadi qorbo'ron.

### ▲ Aytim mashqlarini kuylang.

a)



b)



### BIZ ASKARMIZ



I. Rahmon she'ri

Marsh sur'atida



Biz as- kar- miz, pos-bon- miz, U -lug' yo'l- da kar- von -  
Tinch-lik u- chun qal- qon- miz, Hech bu -zil -mas qo'r-g'on-miz.  
Biz as - kar- miz, pos- bon-miz, U -lug' yo'l- da kar-von -

N. Norxo'jayev musiqasi

Tinch-lik u-chun qal-qon-miz, Hech bu-zil-mas qo'r-g'on-Naqarot;

Bir, ik-ki, uch, bir, ik-ki... Ay-ting, mar-ra kim-ni-ki?

bat mar-ra biz-ni-ki, Ja-sur o'g'-lon, qiz-ni-ki.

bat mar-ra biz-ni-ki, Ja-sur o'g'-lon, qiz-ni-ki.

Ona yurt Turkistonda,  
Yer-u osmon, ummonda  
Chiniqishni qo'ymaymiz,  
Tinchlik kuyin kuylaymiz.

Naqarot:




### Uchtovushlik

Avvalgi darslarda sizlar major, minor, tonika, turg'un va noturg'un tovushlar haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz. Asosiy tayanch pog'ona (I) hamda III va V pog'onalarda joylashgan turg'un tovushlar birligida tonika uchtovushligini hosil qiladi.

I    III    V

Bu uchtovushlikningakkord<sup>1</sup> shaklidagi ko‘rinishi quyidagicha yoziladi.



Major uchtovushligi katta “T”, minor uchtovushligi esa kichik “t” harfi bilan belgilanadi.



- ?! 1. “Biz askarmiz” qo‘shig‘ini yod oling va taassurotlaringizni gapirib bering.  
2. Do major uchtovushligini quyidagi tartibda kuylang.  
I-III-V; I-V-III; III-I-V.

### 3-4-dars. BAXSHICHLIK SAN’ATI

Gap-gashtaklarda mehmondorchilik, qiziqarli suhbatlar, turli o‘yinlar bilan birga she’rlar o‘qilgan, qo‘shiq, ashula va yallalar aytilgan, baxshilar ijrosida terma va dostonlar tinglangan.



Xalq baxshisi  
Umarqul  
Po‘Ikan o‘g‘li

Baxshi — bu “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon” kabi dostonlarning ijodkori va ijrochisi bo‘lib, u dostonlarni ham so‘zlab, ham kuylab beradi. Do‘mbira cholg‘usi (ba’zan qo‘biz, dutor) esa jo‘rnavoz soz sifatida qo‘llaniladi.



<sup>1</sup> Akkord (italyancha accordo; fr. accord – birdamlik) – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘silib yaxlit holda yangrashi.

- “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” , “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlaridan namunalar tinglang.

Uzoq yerdan kelgan aziz mehmonim,  
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing seni.



Tez xabarin bergin chiqmasdan jonim,  
Bolama o‘xshaydi ovozing seni.

O‘g‘lim borgan yerga sen ham boribsan,  
O‘g‘lim bilan soz-u suhbat quribsan,  
Yo o‘g‘limsan, yo o‘g‘limni ko‘rilsan,  
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing seni.

- “Onajonim, sog‘ bo‘ling” qo‘srigini kuylashni o‘rganining.

### ONAJONIM, SOG‘ BO‘LING

M. Dadaboyev she’ri va musiqasi

**O‘rtacha**

*mf*

1. Meh-ri dar-yo

o-na, siz, so‘z-la-ri dur - do-na-siz. Eng a-ziz

xo-na - miz, o- na - jo-nim, sog' bo'-ling, nur-ja -  
 sog' bo' - *f*  
 2. Haq ka-lo-min so'z-la- gan, al- la ay-tib  
 kuy-la-gan, *mf* Biz-ni do-im  
 o'y-la - gan, o - na - jo - nim, sog' bo' -  
 so - ya - bo - nim, sog' bo' - ling.

3. Issiq chehra yuzingiz,  
 Chaqnab turar ko'zingiz,  
 Bizga g'amxo'r o'zingiz,  
 Onajonim, sog' bo'ling, 4. Sizsiz bizning baxtimiz,

Jismi jonim, sog' bo'ling. Boyligimiz, taxtimiz,  
 Sizga xizmat - ahdimiz,  
 Onajonim, sog' bo'ling,  
 Jonajonim, sog' bo'ling.



## BAXSHI JASORATI

– Darvozani ochamiz, mo'r-malaxday<sup>1</sup> bostirib kelgan sahroyilarga endi bas kelib bo'lmaydi. Darvozani ochmasak, shaharni yo suvga bostiradi, yo o't qo'yib, kunpayakun<sup>2</sup> qiladi, – debdi Toshkent biyi<sup>3</sup> balo-qazoday yopirilib, qal'a devorlarini buzayotgan dushmanlardan qo'rqib ketib.

– Biyimiz to'g'ri aytadilar, kalitlarni topshirmoq lozim. Ular ko'pchilik, biz ozchilikmiz. Halizamon bostirib kirib, qirg'inbarot qilishadi, – deb uning gapini ma'qullabdi o'ng qo'l yordamchi.

Boshqalar ham unga qo'shilishibdi. Shundan so'ng Toshkent oqsoqollari maslahatni bir joyga qo'yib, darvozani dushmanga ochishga qaror qilishibdi. Shu payt ostonada juldurvoqi kiyimli, yuz-ko'zi qon bir yigit paydo bo'libdi.

– Yo'q, darvozani ochmaymiz. Bosqinchilar shaharga kirsa, uni vayron qilib, o'g'llarimizni qulga, qizlarimizni cho'riga aylantiradi. Xo'p desangizlar, men bir o'zim bosqinchilarni shum niyatlaridan voz kechtirib, izlariga qaytarib yuboraman, – debdi u.

– Qanday qilib?! Shunday dushmanni-ya! – deb hayron bo'lishibdi yig'ilganlar.

Biy ham:

– Bo'limgan gap! Shuncha yigitlar daf etolmagan dushmani bir o'zing qanday daf eta olarding?! – deb hayron bo'libdi.

<sup>1</sup> M o' r-m a l a x d a y — qumursqa va chigirtka kabi.

<sup>2</sup> K u n p a y a k u n — yanchilib, yo'q bo'lib ketmoq.

<sup>3</sup> B i y — bek (mansabdar shaxs), shahar hokimi.

– Bir o'zi dushmanga bas kela olmaydi. Kalitni dushmanlar qo'liga topshirmoq lozim, – hamma yoqdan shovqin-suron ko'tarilibdi. Shunda haligi yigit:

– Jangda men ham qatnashdim. To'g'ri, yovni qilich bilan daf etolmadik, eta olmaymiz ham. Ammo men baxshiman. Qani, do'mbiramni ishga solay-chi? Balki qilich daf etolmaganni do'mbira daf etar, – debdi.

Biy boshliq oqsoqollar o'ylab-o'ylab, oxiri baxshining taklifiga rozilik bildirishibdi. Baxshi yigit do'mbirasini qo'liga olib, qo'rg'onning eng baland joyiga chiqib, dushman turgan tomonga qarab olib, do'mbirasini chala boshlabdi... Yov-yovlab yurganlardan biri o'q-yoyi bilan uni qulatmoqchi bo'lgan ekan, sarkardasi yo'l qo'ymabdi.

Baxshi yigitga qarab:

– Hoy, yigit, bu yoqqa tush, – deb baqiribdi.  
Baxshi yigit qo'rg'onning tashqarisiga chiqibdi.  
– Kimsan, kasb-koring nima? – deb so'rabdi sarkarda.

– Baxshiman, – deb javob beribdi u.  
– Baxshi bo'lsang, yaxshi odam ekansan.  
Qo'lingdagi do'mbirang bilan bir zumda meni ham kuldirib, ham yig'lata olsang, seni omon qoldirib, yurtingni qamal qilishni to'xtataman-da, orqamga qaytib ketaman. Buning uddasidan chiqa olmasang, teringni shilib, tanangni dorga torttiraman. Shahring kulini ko'kka sovurib, yer bilan yakson etaman, – debdi.

Baxshi yigit rozi bo'libdi. Chunki baxshining o'zi ham, do'mbirasi ham tobida ekan-da! U do'mbirasiga qarab: "Tulporim, kuchingni ko'rsat, shunday sayraki, kulgidan buning ichagi uzilsin, yig'idan ko'zi yumilsin", debdi-da, qulog'ini buray boshlabdi.

Do'mbira shu yerning tutidan qilingan emasmi, baxshi yigitning so'zini "ma'qullaganday" popugini silkitib, "sayray" ketibdi. Qo'shiqni shunday aytibdiki, tog' va yer tebranibdi, dov-daraxtlar silkinibdi. Bir payt bosqinchilashkarboshining ko'zidan yoshi shashqator oqib:

– Bo'ldi, bas qil, yuragimni ezib yubording! – deb uni zo'rg'a to'xtata olibdi.

Baxshi yigit do'mbira chertib, qo'shiq aytishdan to'xtabdi. Keyin yana qo'shiq boshlabdi. Avjiga chiqqanda, dushman boshlig'ining kulgidan ichaklari uzilay-uzilay debdi. Hamma hayron emish. Negaki, sarkarda umrida bunaqangi ahvolga tushmagan, bir zumda ham yig'lab, ham kulmagan ekan-da!

Sarkarda o'ziga kelib:

– Ko'p joylarni qilich kuchi bilan zabit etdim. Ammo seni zabit eta olmadim, qo'shig'ing taslim etdi. Men niyatimdan qaytdim. Izimga qaytaman. Ammo bir iltimos qilsam, yo'q demaysanmi? – debdi.

– Ayting, – debdi baxshi yigit.

– Men bilan ketsang, o'ng qo'l vazirim qilib olaman. Butun umring rohat-farog'atda o'tadi, – debdi sarkarda.

– Yo‘q, men shu yerda tug‘ildim, shu joyda o‘laman, – debdi baxshi.

Shunday qilib, baxshi yigitning do‘mbirasi bilan qo‘srig‘i Toshkent qal’asini xonavayron, elini talon-toroj bo‘lishidan saqlab qolgan ekan.

(“O‘zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari” kitobidan.)

- ?! 1. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidan olingan namuning mazmunini so‘zlab bering.  
2. “Onajonim sog‘ bo‘ling” qo‘srig‘ining mualliflari kimlar?  
3. “Baxshi jasorati” rivoyati nima haqida?

### **5-6-dars. BAHOR FASLI QO‘SHIQLARI**

O‘zbek xalqining yil oylari va fasllariga bog‘liq holda o‘tkaziladigan an‘anaviy marosim va udumlari bor. Masalan, go‘zal bahor faslida Navro‘z bayrami keng nishonlangan, lola sayillari hamda dehqonchilik mehnatining boshlanishi bilan bog‘liq “Shox moylar” marosimi o‘tkazilgan. Shuningdek, kuz faslida yig‘im-terim ishlari olib borilgan bo‘lsa, qish faslida gap-gashtaklar uyushtirilgan. Xalq og‘zaki musiqa ijodida ana shu kabi mavsum-marosimlarga bevosita (yoki bilvosita) bog‘liq qo‘shiqlar ham yuzaga kelgan.

### **NAVRO‘Z BAYRAMI QO‘SHIQLARI**

Go‘zal bahorni bayram fasli deb ataydilar. Chunki bu faslda Navro‘z, ya’ni yangi yil bayrami keng nishonlanadi. Navro‘z bayramida qo‘srig-yallalar kuyylanadi, o‘lan-aytishuvlar va turli



xil qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi. Shuningdek, bu bayramda ko'klam o'simliklari unib chiqishi munosabati bilan aytildigani alohida qo'shiqlar ham mavjud. Masalan, boychechak va binafshalarning ochilishi shodlik tuyg'ulariga sabab bo'lgan va bu tuyg'ular maxsus aytimlarda o'z ifodasini topgan. Bu holatni, jumladan, boychechak haqidagi qo'shiqlarda his etamiz. Boychechak Navro'zning darakchisi hisoblangan, chunki uning unib-o'sib chiqishi Navro'z kuniga to'g'ri keladi. Shu bois boychechakni qir-adirlardan topib kelib, u haqida shodlik qo'shig'ini uyma-uy yurib kuylaganlar va shu tarzda bu xushxabarni qo'ni-qo'shni, mahalla ahliga yetkazganlar.



## BOYCHECHAK



Sho'x

O'zbek xalq qo'shig'i

Boy-che-cha-gim bog'-lan-di,      qo-zon to' - la      ay-ron -dir,  
Ay- ro-ning-dan ber-ma -sang,      qo-zon -la- ring      vay-ron-dir.

Qat-tiq yer-dan qaz-lab chiq-qan boy - che-chak, yum-shoq yer-  
 yu-gu-rib chiq-qan boy- che-chak. Boy-che-chak-ni tut- di - lar,  
 tut yo-g'och - ga os - di - lar, qi - lich bi -  
 chop-di - lar, bax - mal bi - lan yop -di - lar.

Navro'z kunlari shodlik tuyg'ularini ifoda etuvchi cholg'u kuylari ham ijro etilgan. Ana shunday ko'hna kuylarning ayrimlari bizning davrgacha yetib kelgan. Xususan, "Bahor keldi", "Lola" singari o'zbek xalq qo'shiqlari shular jumlasidandir.





## BAHOR KELDI

O'zbek xalq qo'shig'i

### Shoshmasdan

Ba-hor kel-di, o - chil -di gul- lar har yon- da,  
Bul-bul-lar say - ra - sha - di u yon- bu yon- da.

Toshdan toshga echkilar Sakrab o'ynaydi.	Tog'dan ko'lga tiniq suv Tushdi shildirab,
Tog' bag'rida qo'zilar O'tlab ma'raydi.	Ko'l ichida suv to'la Turar miltillab.

Bahor faslida qir-adirlarda lola-gullar ochilib, tabiat manzaralari yanada go'zal tus oladi. Shunday damlarda xalqimiz lola sayli bayramini o'tkazgan. Yoshlar, o'spirin bolalar qir-adirlarda sayr qilishib, quchoq-quchoq lola terishgan, so'ngra ularni qo'niqo'shnilariga, qarindosh-urug'lariga ularishishgan hamda lola haqida qo'shiqlar kuylab, turli o'yinlar o'ynashgan.



## LOLA

O'zbek xalq qo'shig'i

**Quvnoq**

Lo - la, lo - la, lo - la - jon, o'-sar jo- ying da - la - da,  
 Lo - la, lo - la, lo - la - jon, chi-da-ding-mi ja - la -  
 Yur, sa-yil-ga bo-ray- lik, lo - la - lar- ni ko'-ray-lik,  
 Qu-cho- g'i -miz to'l- di- rib lo - la- gul- lar te - ray- lik.

Go'zal bahor manzaralari bastakorlarimiz ijod etgan kuy va qo'shiqlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, xalqimizning sevimli san'atkori Yunus Rajabiy ijodiga mansub "Bahorim" kuyida ko'rkarib fasl ila uyg'ongan nafis tuyg'ular ifodasi his etiladi.



## BAHORIM

**Yunus Rajabiy** musiqasi

**O'rtacha tez**



## NAVBAHOR



**N. Narzullayev she'ri**

**O'rtacha tez**



Fas-li nav-ba- hor                            ki-rib kel-di e-lim – ga,  
Za-ri-ni soch-di qu-yosh                    biz-ning o-na za-min-ga.  
Sho-yi yap-roq-la-ri – ni                    yoy-di go'-zal bi-naf-sha.  
Xush-bo'y hid-la-rin so-chib,                jil-ma-ya-di u biz-ga.                Qan-day go'  
zal-ki bu ba-hor,                            bu ba-hor,                    o - lam to'l- di gul-che-chak-  
gul-che-chak-ka.                                Cha-raq- la-gan                    qu-yosh ku- lib,  
sa-xo-vat qi-lar el-ga.                        Qan-day g'o –                zal- ki bu ba-hor,                bu ba-

o - lam to'l - di gul - che-chak-ka, gul - che-  
 Cha - raq - la - gan qu - yosh ku  
 sa- xo - vat qi - lar el - ga.

Bahor chiroyin  
 kuzatgin-chi sen bir on,  
 Naqadar go'zal bahor,  
 chiroyidan bo'ldik lol.  
 Bu chaman maysazorlar  
 yurtimizga yarashar,  
 Jajjigina qalbimga  
 cheksiz quvonch bag'ishlar.



 Berilgan tovushqatorlarni aniqlang. Nota daftariga turg'un tovushlarni yarimtalik cho'zimlarda, noturg'unlarni esa choraktalik cho'zimlarda yozing.



- ?! 1. Bahor fasliga atalgan qanday qo'shiqlarni bilasiz?  
 2. "Bahor keldi" qo'shig'ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.  
 3. "Navbahor" qo'shig'ini yod oling.

### 7-8-dars. BAHOR ELCHILARI VA TABIAT

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan laylak, turna, qaldirg'och kabi qushlarni bahor elchilari sifatida e'zozlab keladi. Chunki bu qushlarning uchib kelishi yaxshi kunlardan "darak" bergen. Masalan, erta bahorda laylakni ko'rish baxtdan nishona deyilsa, laylak uchib kelgan tomonidan ko'ringan odam qishloqqa qut-baraka keltiradi, deb e'tiqod qilingan. Chunonchi, barvaqt uchib kelgan turna erta bahorni daraklasa, pastlab uchgan turna rizq-ro'z unumli bo'lishini anglatgan va hokazo<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Navro'z. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, M. Jo'rayev. Toshkent, Fan, 1992-yil, 85–90-bet.



## ARG'AMCHI



### Shoshmasdan

Naqarot:

Ar-g'am-chi, gi-lam-chi, ar-g'am-chi, gi-lam-chi,  
Tur-na de-sam tu-rum-li, keng da-la-ga qo'-nim  
Tur-na-lar uch-sa past-lab riz-qing ke-lar u-num -  
Naqarot:  
Ar-g'am-chi, gi-lam-chi, ar-g'am-chi, gi-lam-chi,

Bolalar qushlarning uchib kelishini intazorlik bilan kutishgan. Chunki qushlar issiq kunlar boshlanishining “xabarchisi” hamdir. Shu bois, masalan, laylak uchib kelganini ko’rgan bolalar “Laylak keldi” qo’shig’ini kuylashgan va bu haqda kattalarni ham xabardor etishga oshiqqanlar:

Laylak keldi, yoz bo’ldi,  
Qanoti qog’oz bo’ldi.  
Dala-dashtlar qulf urib,  
Daryo bo’yi soz bo’ldi...

Goho xo'rozlarning qo'ng'iroqdek ovozlari ham bolalarning zavqlanishiga sabab bo'lib, ular xo'rozlarning "qu-qu"lashiga taqlid eta boshlaganlar. Shu tarzda xo'roz haqida qo'shiqlar yuzaga kelgan.

### **QICHQIR, XO'ROZIM**

**O'zbek xalq qo'shig'i**

**Quvnoq**

Qich - qir, xo' - ro - zim, qich qir, xo' - ro - zim,  
Bo - la - lar uyg'on - sin, hey! Bog' - lar, o'r  
te - pa - lar - da lo - la - lar o - chil - sin.  
Qu - qu, qu - qu qu - qu, qu - qu.

Qichqir, xo'rozim, qichqir, xo'rozim,  
Bolalar uyg'onsin.  
Bog'lar, o'rmon, tepalarda  
Lolalar ochilsin.

Qichqir, xo'rozim, qichqir, xo'rozim,  
Tonglar yorishsin.  
Tong havosi, quyoshidan  
Bolalar quvonsin.



## BULBULCHA

**M. Qo'shoqov she'ri  
Mayin**

**M. Nasimov musiqasi**

O' - zing kich-ki - na, o - vo - zing yax - shi.

Qa - ni, bul - bul - cham, bir say - rab ber -

Qa - ni, bul - bul - cham, bir say - rab ber - chi.

May - li, o'r - toq - jon, May - li, say-ray - man.

Ko'm-ko'k bo-g'ing - da u - chib yay-ray - man.

O'zing kichkina,  
Ovozing yaxshi.  
Qani, bulbulcham,  
Bir sayrab ber-chi.

Mayli, o'rtoqjon,  
Mayli, sayrayman.  
Ko'm-ko'k bog'ingda  
Uchib yayrayman.

Shirin bulbulcham,  
Kuylayer chaq-chaq.  
Tinglab qo'shig'ing  
Dillar xushchaqchaq.

Mehnat qilbsan,  
Ekibsan gullar.  
Gulni sevamiz  
Bizlar — bulbullar.



## TON VA YARIM TON


Musiqaga tovushlarining orasida turlichalama masofa mavjud. Bu masofa ton va yarim ton bilan o'chanadi. Bunda ton ikkita yarim tonlikka teng bo'lsa, ikkita yarim ton bir tonni tashkil etadi. Masalan, do major tovushqatorida yarim ton oralig'i "mi" va "fa", "si" va "do" tovushlari orasida yuzaga keladi. Ton va yarim tonlikni yaqqol tasavvur etish uchun pianino klavishlariga qaraymiz.

O'rtaida qora klavish bo'lgan ikki oq klavish oralig'i bir tonga teng bo'ladi.

Aksincha, orasida qora klavishi bo'lmagan ikki oq klavish oralig'i yarim tonni tashkil etadi.

Yarim ton oralig'idagi tovushlarni kuylaganda ovozda go'yo yarim "qadam" tashlagan bo'lamiz, ya'ni ovozingizni ozgina yuqoriga ko'tarasiz yoki pastga tushirasiz. Demak, yarim ton oralig'idagi tovushlar bir-biriga nihoyatda yaqin joylashgandir.

 Nota misollaridagi qaysi tovushlar orasida yarim tonlar hosil bo'lishini aniqlang:



The image shows three musical staves. Staff a) has notes on the first, second, and third lines. Staff b) has notes on the first, second, and fourth lines. Staff d) has notes on the first, second, and fifth lines.

- ?! 1. Qushlar haqida qanday qo'shiqlarni bilasiz?  
2. "Bulbulcha" qo'shig'ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.  
3. "Bulbulcha" qo'shig'ini yod oling.**

### **9-10-dars. BASTAKOR KOMILJON JABBOROV**



**Komiljon  
Jabborov**

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Komiljon Jabborov (1914 – 1975) milliy musiqamiz rivojiga katta hissa qo'shgan san'at-kordir. U dastlab akasi Mo'minjonidan g'ijjak chalishni o'rgana boshladi. Keyinchalik ustozlari — Ro'zimat Isaboyevdan chang, g'ijjak va tanbur, Sobirjon Siddiqovdan g'ijjak va Muhiddinhoji Najmidinovdan dutor mashqini o'rgandi.

Voyaga yetgach, K. Jabborov musiqa san'atining ham ijrochilik, ham ijodkorlik sohalarida samarali faoliyat ko'rsatdi. Xususan, u g'ijjakda "Gul

mavsumi”, “Navo”, “Dugohi Husayn” kabi murakkab tuzilishli mumtoz kuylarni yuksak mahorat bilan ijro etgan. Shu bilan birga K. Jabborov musiqali drama, kuy, qo’shiq va ashula sohasida ham barakali ijod qildi. Jumladan, kompozitor Sulton Hayitboyev bilan hamkorlikda “G’ulja ustida nur”, kompozitor Doni Zokirov bilan hamkorlikda “Nodira”, “Mening jannatim” nomli dramalarga musiqa bastaladi. Shuningdek, ko’plab qo’shiq va ashulalar ijod etdi. “Obod o’lkam”, “Toshkent piyolasi”, “Diyorimsan”, “Shifokorlar”, “Sog’indim”, “Mubtalo bo’ldim senga”, “Assalom”, “Vatan”, “Ko’zlarining”, “Ey pari”, “Etmasmidim”, “Nazzora qil”, “Bu ko’ngil” shular jumlasidandir. Masalan, sozandaning shoir Habibiy so’ziga bastalagan dirlrabo kuyli “Diyorimsan” ashulasi xalqimiz orasida mashhur bo’lib ketgan. Mazkur ashula shunday boshlanadi:



## DIYORIMSAN



**Habibiy** so’zi

**K. Jabborov** musiqasi

O’rtacha tez

The musical notation consists of two staves of three measures each, in 3/4 time with a treble clef. The first staff starts with a quarter note followed by eighth notes. The second staff starts with a quarter note followed by eighth notes. Below the notes, the lyrics are written in a phonetic transcription: "Ey o - zod, go' - zal", "o'l - kam", "(jo - ni -mey), hur - mat - li", and "di -".

rim - san, Ko'p zah - mat i - la  
 top - gan (jo - ni - mey) bax - tim - sa - nu  
 rim - san. Jo - nim ka - bi as-  
 ray - man, no - mus i - la o - rim -  
 Ko'ng - lim o - chi - lur boq - sam (jo - ni -  
 o - ro-mu qa - ro - rim - san.

Qo'yningda o'sar yayrab eng baxtiyor insonlar,  
 Boshdan-oyoq oq oltin sahro-yu biyobonlar.  
 Albatta o'tar yuzdan zo'r ahd ila paymonlar,  
 Oltinga xazinamsan, bog'im-la bahorimsan,  
 Har yerda madadkorim, har ishda madorimsan!



## KAPALAK VA KAMALAK


**N. Narzullayev** she'ri  
**Quvnoq**



Gul - ga qo' - nib ka - pa - lak.



qa-no- ti - ni o'y - na - Ko'k- da chaq-nab ka-ma - lak,




yet - ti rang - da raqs - e - tar Gul - ga Ka



lak - jon, ka - pa - lak, sen ham men - day sho'x -



Uy - da yol - g'iz o'l - ti - rib, Ze - ri - kish - ga yo'q



Ka - pa, Ze - ri - kish - ga yo'q - mi -

Gulga qo'nib kapalak,  
Qanotini o'ynatar.  
Ko'kda chaqnab kamalak,  
Yetti rangda raqs etar.

Kapalakjon kapalak,  
Sen ham menday  
sho'xmisan?  
Uyda yolg'iz o'Itirib,  
Zerikishga yo'qmisan?






## Alteratsiya belgilari

Musiqada alteratsiya deganda biz tovushlarni o'zgartirishni tushunamiz. Demak, asosiy tovushlarning ko'tarilishi va pasayishi alteratsiya deb aytildi. Alteratsiya belgilari quyidagicha:

Diyez # – tovush balandligini 0,5 tonga ko'taradi;



do-diyez



sol-diyez



fa-diyez

Bemol b – tovush balandligini 0,5 tonga pasaytiradi;



mi-bemol



si-bemol

Bekar h – ko'tarish va pasaytirish belgilarini bekor qiladi.



fa-diyez      fa-bekar



si-bemol      si-bekar



1. "Diyorimsan" ashulasining ijodkori kim?
2. Bastakor K. Jabborov ijodi haqida gapiring.
3. "Kapalak va kamalak" qo'shig'ini yod oling.

## TO'RTINCHI CHORAK

### XALQ CHOLG'ULARI

#### 1-2-dars. TORLI CHOLG'ULAR

O'zbek xalq musiqiy cholg'ularini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Torli cholg'ular.
2. Damli (puflama) cholg'ular.
3. Zarbli cholg'ular.

Torli cholg'ularda tovush hosil etish vositalari turlicha. Jumladan, dutor va do'mbira sozlari chertib chalinadi. Tanbur torlari esa ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus moslama — "noxun" (ma'dandan yasaladi) vositasida chertiladi.



**Dutor**



**Tanbur**

Qonun sozi ham barmoqlarga kiyiladigan maxsus noxunlar vositasida tirlab chalinadi.



**Qonun**

Qashqar rubobi, afg'on rubobi, ud kabi  
cholg'ular mizrob (mediator) vositasida chalinadi.



**Qashqar rubobi**



**Afg'on rubobi**



**Ud**



**Ud**

Torli cholg'ularni maxsus kamon vositasida ham chalish mumkin. G'ijjak, qo'biz, sato ana shunday torli-kamonli cholg'ulardir.



**G'ijjak**



**Sato**



**Qo'biz**

Chang cholg'usi ikkita cho'p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.



**Chang**



## AJAM II (taronasi)

O'rtacha tez

O'zbek mumtoz kuyi



## KO'KLAM KELADI



P. Mo'min she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

O'rtacha tez

Har yi- li ko'k -lam ke-la-di, na-na-na na, na-na-na-na.

Ya-na ham ko'r - kam ke-la-di, na-na-na na, na-na-na-na.

I-liq -lan-sa ha-ro-rat, el- ga ro-hat- ha-lo-vat, El- ga ro-  
Bu-lut qo-chib yig'-lay- di,

hat ha-lo- vat

A-riq -qa suv      sig'-may- di,  
 O...

Bo'-yin cho'-zib      sha- mol - ga,      So-vuq

char shi-mol-ga.      Har yi -li      ko'k-lam ke-la-di,

na-na-na na, na-na-na-na.      Ya-na ham ko'r -kam ke-la-di,


na- na- na na, na-na-na-na.      Ya-na ham      ko'r-

kam ke- la- di,

Chumoli ham tinmaydi,  
 Bekorchi ko'rinxmaydi.  
 Ko'klam bilan albatta,  
 Har jonzot harakatda.

Bag'rini keng ochar yer,  
 Ishlaganda chiqar ter.  
 Har yili ko'klam keladi,  
 Yana ham ko'rakam keladi.

## AFG'ON RUBOBI HAQIDA RIVOYAT



ga olib kirishar ekan. Oltirib, bog'da yurgan tovuslarga tikilib xayol surgani-surgan ekan. Ularni juda yaxshi ko'rар ekan-da. Tovuslar patlarini yoysa ko'ngli yorishar, o'yinga tushishsa quvnar ekan. Doim: "Shu tovuslar so'zlashib, qo'shiq aytib, raqsga tushishsa-ku?" – der ekan. Buxoroda yashovchi bir afg'on yigit bundan xabardor bo'lib qolibdi. U qo'li gul usta bo'lib, hatto quruq yog'ochga ham "jon kiritib" yuborarkan. Hunarini ishga solib, tovusga o'xshagan bir asbob yasabdi. Uni olib xonning saroyiga boribdi. Xonga ro'baro' bo'lib: "Men qizingizni tuzataman", — debdi. Xon rozi bo'libdi. Afg'on yigit boqqa kirib, qizning yoniga kelibdi-da, o'zi yasagan tovussimon asbobni chala boshlabdi. Asbobning goh hazin, goh mungli, goh jo'shqin

<sup>1</sup> Qadimda bemor tanasidagi ins-jins va yovuz kuchlarni quvadi deb ishonilgan kishi (ko'pincha ayol).

kuyiga berilib ketgan xonning qizi asta-asta uyquga ketibdi. “Uyqu dardga davo, bemorga shifo”, – deb bejiz aytishmagan. Afg'on yigit asbobini chalaveribdi, xonning qizi maza qilib uxlayveribdi. Bora-bora afg'on yigiti uni yaxshi ko'rib qolibdi. Qizga mehri oshgan sari qo'lidagi asbobi yana-da boshqacharoq bo'zlayveribdi. “Qizimga nima bo'l-diykin, bir xabar olay”, – deb boqqa chiqqan xon qizining uyqu og'ushida, yonidagi afg'on yigiti esa qo'lidagi asbobni bo'zlatayotgan holda ko'rib: “Tag'in qizimning boshini aylantirib qo'ymasin”, deb o'ylab, yigitni bog'dan haydab chiqaribdi. Shu tariqa qiz tuzalib ketibdi. Afg'on yigitini ko'p yo'qlatibdi, topolmabdi. Xon qizining tuzalib qolganini ko'rib, o'ziga o'xshagan xonning o'g'liga katta to'y qilib berib yuboribdi. Afg'on yigiti qizning ko'yida<sup>2</sup> o'zi yasagan asbobni chalib yuraveribdi. U chalganda uyqusizlar uyquga ketibdi, kasallar tuzalibdi. Muhabbatি bevaqt xazon bo'lganlarning dardiga dard qo'shilibdi.

Shu-shu afg'on yigiti yasagan asbob “Afg'on rubobi” deb ataladigan bo'libdi.


(“O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari” kitobidan.)

### 3/4 o'Ichovi



3/4 o'Ichovi o'rtacha sur'atda ijro etiladigan musiqiy asarlarda qo'llaniladi. Bu o'Ichovning yuqoridagi “3” raqami bir takt ichida uch hissa borligini, “4” raqami

<sup>2</sup> Ko'yida – ishqida.



esa bu hissalarning har biri choraktalik cho'zimga teng ekanligini anglatadi. Bunda uch hissadan birinchi hissa kuchli, ikkinchi va uchinchi hissalari esa kuchsizdir.

$\frac{3}{4}$  o'Ichovida dirijorlik qilganda o'ng qo'l harakati quyidagicha bo'ladi: "1 i" deganda – qo'l yuqordan pastga tushadi, "2 i" deganda – qo'l pastdan o'ngga tomon harakatlanadi va "3 i" deganda – o'ngdan yuqori tomon ko'tariladi.

- ??!
1. O'zbek xalq cholg'ulari necha guruhga bo'linadi?
  2. Torli-urma cholg'ularning nomini ayting.
  3.  $\frac{3}{4}$  o'Ichovida dirijorlik qiling.

### 3-4-dars. DAMLI CHOLG'ULAR

An'anaviy xalq bayramlari, sayil va to'y marosimlarini karnay-surnay sadolari-yu, doyna-nog'oralarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki bu cholg'ular shodiyona kunlar darakchisi sifatida xalq ma'naviy hayotidan o'rinn olgan.



Surnay



Karnay



Bulardan tashqari, nay, qo'shnay, sibiziq, bulamon, changqobuz kabi damli (puflama) cholg'ular ham bor.

**changqobuz**



**Qo'shnay**



**Nay**



**Sibiziq**



**Bulamon**

Damli cholg'ular ijrosida kuylar tinglang.



## CHAMANDAGUL

O'zbek xalq qo'shig'i

Quvnoq

Chamandagul o-chi-lib-di-yo cha-kang-ga taq,  
cha-kang-ga. Biz-ning hov-li yo'-lin-giz,  
chin-ni bax-mal to'-nin-giz, Cha-man-da-gul  
o-chi-lib-di-yo cha-kang-ga taq, cha-kang-ga.

## BAHOR

Z. Egamberdiyeva she'ri  
Ohista

Sh.Yormatov musiqasi

Bir bi - ri - ga ye - tol - may Soy - lar cho - pib  
char - cha - di. Qu - von - chin ber - ki - tol - may, Qush-lar ham  
pak chal - di. cha - pak chal - di. Qo - lish -  
na - lar - dan. U - cha - yap - miz ar -

Bo - dom gul - la - sa bir- dan. Ko' - rib hay -  
 qo - la - man, Bu - vim - dan eng bi - rin -  
 Men su-yun-chi o- la - man, o - la -  
 Xur - sand bo' - lib da - raxt - lar, Qo' - lin  
 cho' - za - di, Qal - dir - g'och qayt - gan payt  
 Me - ning bo' - yim o' - sa - di, o' - sa -  
 Bir - bi - ri - ga ye - tol - may, Soy - lar cho -  
 char - cha - di, Qu - von - chin ber - ki - tol -  
 Qush - lar ham cha - pak chal - di, cha-pak - chal - di


## NAY SADOSI

Sulton Husayn Boyqaro ko‘p vaqtini ovda o‘tkazarkan. Kunlardan bir kun u shikorda juda charchabdi. Chodiriga qaytib: “Men uxlamoqchiman!” – debdi. Hech kim churq etmabdi.

“Men uxlamoqchiman!” – debdi yana. Hech kimdan sado chiqmabdi. “Men uxlamoqchiman!” – debdi tag‘in Husayn Boyqaro. A’yonlari-yu mulozimlari u yoq-bu yoqqa yugurib sharob keltirishgan ekan, sulton uni qaytaribdi, kanizlardan kiritishgan ekan, ularni ham haydab chiqaribdi. Sardorlar sultonni uxlatalamiz, deb o‘zlarini o‘tga-cho‘qqa urishibdi, ammo qo‘llaridan hech narsa kelmabdi. Sultan g‘azablanib, qahr otiga minibdi-da, qaytgunimcha chorasi topmasalaring, hammangni dorga osaman, deb yana shikorga chiqib ketibdi. Vazirlar o‘ylab-o‘ylab, bu muammoni hazrati Navoiydan bo‘lak kishi yecholmaydi, deb shoirga chopar yuboribdilar. Navoiy yumushlarim ko‘p, deb ovga chiqmagan ekan. Chopar borib Navoiyga bor gapni aytibdi. Navoiy gap nimadaligini darrov tushunib, Naychi bobo degan mashhur naychini o‘zi bilan birga olib, Husayn Boyqaro yoniga jo‘nabdi. Ovxona o‘rtasiga qurilgan “Sulton o‘tov”ga naychini kiritib yuborib, o‘zi boshqa bir o‘tovga tushibdi. Naychini ko‘rgan Husayn Boyqaro xursand bo‘lib ketib:

– Men sevgan kuyni chaling, bir orom olay,  
juda toliqdim, – debdi.

Nay tilga kirib biram bo‘zlabdiki, sulton uyquga ketganini ham bilmay qolibdi. Tong otish oldidan



“Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro”  
Musavir **Sa'dulla Abdullayev**.

nay yana xonish qilibdi. Sulton kayfiyati tetik uyg'onibdi. Xizmatkorlaridan birovini yo'qlatib so'rabdi:

– Nay ovozi bilan uxlab, nay ovozi bilan uyg'onishimni kim topdi? Ayt, bosh to'lovi beraman.

– Mavlono Navoiy, – deb javob beribdi xizmatkor.


– Do'stim Alisher? Qani u, tez kelsin, – debdi sulton Husayn shodligi ichiga sig'may.

Sulton yasovullari Navoiyga bu xabarni yetkazib, Husayn Boyqaro huzuriga chorlayotganini aytibdilar.

– Ofarin! Tasanno! Kechasi-yu kunduzi oromim o'zingizsiz, do'stim, – deb Husayn Boyqaro Navoiyni izzat-ikrom bilan qarshi olibdi.



## 4/4 o'Ichovi



4/4 o'Ichovi madhiya, qo'shiq, marsh va boshqa musiqa asarlarida qo'llaniladi. Bu o'Ichovning yuqoridagi "4" raqami bir takt ichida to'rt hissa borligini, quyidagi "4" raqami – bu hissalarning har biri choraktalik cho'zimga teng ekanligini anglatadi. Bunda to'rt hissadan birinchi hissa kuchli, ikkinchi hissa kuchsiz, uchinchi hissa nisbiy kuchli va to'rtinchi hissa kuchsizdir.

4/4 o'Ichoviga dirijorlik qilganda o'ng qo'l harakati quyidagicha bo'ladi: "1 i" deganda – qo'l yuqoridan pastga tushiriladi, "2 i" deganda – qo'l chapga harakat qiladi, "3 i" deganda – o'ngga va "4 i" deganda – yuqoriga ko'tariladi.

## 5-6-dars. ZARBLI CHOLG'ULAR

O'zbek xalqining madaniy tarixida doira, nog'o-ra, dovul, qayroq, zang kabi ko'plab zarbli – urma cholg'ular yuzaga kelgan. Bu cholg'ularda alohida badiiy ahamiyatga ega ritmik usullar chalingan hamda usullar vositasida boshqa cholg'ular ijrosiga jo'rnavozlik qilingan.

"Usul" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning mazmunida o'zgarmay takrorlanib turuvchi ritmik tuzulma (formula) va shu asosda kuyning ijo etilish sur'atini boshqarib turish tushuniladi. Turli xil urma cholg'ularda hosil qilinadigan ritmik usullar xalqimiz madaniya-

tida uzoq o'tmishdan buyon ma'lum. Jumladan, bir maromda takrorlanuvchi ritmik usullar qadimda o'tkazilgan ov jarayonlarini uyushqoqlik bilan bir tartibda o'tkazishga xizmat qilgan bo'lsa, to'y marosimlari, sayil va boshqa ommaviy shodiyona tadbirlarga bayramona kayfiyat, ko'tarinki ruh bag'ishlovchi muhim omillardan biri bo'lgan.



**Doyra**




**Nog'ora**

## ○ Zarbli cholg'ular ijrosida kuylar tinglang.



### 3/8 o'Ichovi



3/8 o'Ichovi tez sur'atda ijro etiladigan musiqa asarlarida qo'llaniladi. Bu o'Ichovning yuqoridagi "3" raqami bir takt ichida uchta hissa borligini, "8" raqami esa bu hissalarning har biri nimchoraktalik cho'zimga teng ekanligini anglatadi.



Bunda uch hissadan birinchi hissa kuchli,  
ikkinchi va uchinchi hissalari esa kuchsizdir.



## BOLALIK

Dilnur she'ri

X. Hasanova musiqasi

Quvnoq

Qan-day go'-zal shi -rin - dir bo - la  
Un-da biz-lar do - i - mo qo - lay  
Qu - vonch-lar -ga o- lam -ni to'l - di - rib,  
Er-tak- lar -da yur-gan -dek bo' - lay - lik.  
Qu - yosh ham nur so - char biz - lar - ga,  
Sho'x-sho - don o' - g'i - lu qiz  
ga. Os -mon-nig bag'-ri -da yay - ray -



Qanday go'zal, shirindir bolalik,  
Unda bizlar doimo qolaylik.  
Quvonchlarga olamni to'ldirib,  
Ertaklarda yurgandek bo'laylik.

### Naqarot:

Quyosh ham nur sochar bizlarga,  
Sho'x-shodon o'g'il-u qizlarga.  
Osmonning bag'rida yayraylik,  
Bor bo'lsin bolalik.

Quvontirib ko'zlarni o'ynaymiz,  
Tabassumsiz hech kimni qo'yaymiz.  
Biz bor yerda kattalar zerikmas,  
Xursand qilib barchani to'yaymiz.

- ?! 1. Qanday zarbli cholg'ularni bilasiz?  
2. "Bolalik" qo'shig'ini yod oling va mualliflarining ismini  
ayting.  
3. Kuchli hissalarni aniqlang.



## DOYRA

Qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishibdi. Yo'llari Cho'li Malikdan o'tar ekan. Yo'l yurib, yo'l yurishsa ham oz emas, mo'l yurishib, Cho'li Malikning qoq o'rtafiga borib qolishibdi.

Bir payt g'amLAGAN suvlari tamom bo'lib qolibdi. Suvsizlikdan birin-ketin sula-yishib, yotib qolishibdi. Kuch-quvvatlari ketib, turib yurishga aslo madorlari qolmabdi. Karvonda bir yigit ham bor ekan. U o'zining meshidagi oxirgi suvni safardoshlari og'ziga tomchilab-tom-chilab quyibdi. Odamlar biroz o'zlariga kelishibdiyu, baribir issiq hamda chanqoqlikdan yo'Iga tusha olmabdilar. Shunda boyagi yigit o'ylab-o'ylab, suvdan bo'shagan meshini yorib, aravaning g'ildiragiga tarang qilib tortibdi. Shundan keyin oftobga qaratib qo'yibdi. So'ngra



uni taka-tumlata boshlabdi. Ovoziga mahliyo bo'lib qattiqroq taka-tumlatibdi. Bora-bora uni shunchalik ura boshlabdiki, asbobning ovozi butun cho'Ini larzaga keltiribdi. G'ayritabiiy bu ovozdan odamlar ham o'zlariga kelib, g'imirlay boshlashibdi. Ularda kuch-quvvat, xatti-harakat paydo bo'libdi. Ovoz barxandan barxanga<sup>1</sup> o'tibdi, tepalikdan tepalikka ko'chibdi. Oxiri shu cho'Ining narigi che-tida ketayotgan boshqa karvondagilarning qulog'iga ham yetib boribdi.

Karvondagilar: "Karvon halokatga uchrabdi, bo'lmasa bunaqa ovoz chiqarmasdi. Yordamga chaqiryapti, bormoq kerak", — deb ularning oldilariga yetib borishibdi. Suv berib, falokatga uchragan savdogarlarni o'zları bilan birga savdoga olib ketishibdi. Shu-shu doira "baka-baka-bum, baka-baka-bum" deb ovoz chiqara boshladimi, odamlarda tetiklik, dadillik, jasurlik kayfiyatları uyg'onarkan.



(“O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari” kitobidan.)

<sup>1</sup> Barxan – sahrolarda shamol ko'chirib yuradigan qumtepalar.

## 7-8-dars. BASTAKOR FAXRIDDIN SODIQOV

Atoqli san'atkor Faxriddin Sodiqov (1914 – 1977) o'zining sermazmun qo'shiq-ashulalari va betakror cholg'u kuylari bilan o'zbek musiqa rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Xususan, bastakorning "O'zbekcha vals", "Vatan marshi", "Qurilish marshi" cholg'u kuylari, "O'zbekiston", "To'y muborak", "Dutorim", "Bir go'zal", "Tinchlik qo'shig'i", "Shirmonoy", "Zarafshon" kabi qo'shiq va ashulalari milliy musiqa xazinamizdan munosib o'rin olgan.

Bunday mazmundor asarlarni ijod etishda F. Sodiqovning bastakorlik iste'dodi hamda chang va dutor cholg'ularini mukammal bilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu fazilat bastakorning yana boshqa ko'plab asarlarida ham namoyon bo'ladi.

Jumladan, bunga F. Sodiqovning shoir Akmal Po'lat she'riga bastalagan "Qorabayir" qo'shig'i misol bo'lishi mumkin.

Qorabayir – O'zbekistonda yetishtiriladigan ot zoti bo'lib, undan salt minishda hamda aravaga qo'shib yuk tashishda foydalaniladi. "Qorabayir" qo'shig'ida dehqonlarimizning og'irini yengil qilishga xizmat qilib kelayotgan ana shunday otlar vasf etiladi.



Faxriddin Sodiqov

Qo'shiqning cholg'u asboblarida ijro etiladigan kirish qismi va naqarotlari chavandozning mar-donavor yurishini, she'riy bandlarning kuy-ohanglari esa keng dalalarni va ularda yelib-yugurayotgan otlarni tasvirlaydi.



## QORABAYIR

**A. Po'lat** she'ri

**F. Sodiqov** musiqasi

Ildam

Chor-va-miz-ning  
sav-la-ti-dur qo-ra - ba-yir o- ti - miz, Yil- qi-miz-  
chi- ro- yi -dur, bu-kil- mas qa-no-ti-miz.  
Er- ka-la-nib kish-na- gan -da  
ja-rang-lar da - la, tog' - lar, Jan-go-var

xis- la- ti ko'p, Meh- nat-da ko'n- gil chog' - lar,  
 meh-nat-da ko'n- gil chog' - lar. Oh, jon tul- po-  
 miz  
 Ye-li-shi-ga  
 teng ke - lol - mas hat-toko'k-da bur- gut - lar,  
 Qil-gan i-shi el - ga man - zur, maq- to - vi  
 bor  
 bir daf - tar. Har kun u - ni er - ka - la -  
 yol-la- ri- ni ta-ray- man, Men o- tim- ga  
 me-hr qo' - yib ham- ro- him deb qa-ray - man.  
 Ham-ro- him deb qa-ray - man. Oh, jon tul- po-ri-miz.



## YOZ YAXSHI

P. Mo'min she'ri

D. Zokirov musiqasi

**O'rtacha tez**

Yoz kezar yashnagan elimda,  
Yoz zavqi tilimda, dilimda.  
Qushlarim sayrashar, qaynashar,  
Buloqlar shivirlar, shildirar:  
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

Quyoshday mehnatim qudrati,  
Pahlavon xalqimning sur'ati,  
Yurtimni bezagan, qaranglar,  
Yoz kuyi har yonda jaranglar:  
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

 **Quyidagi misolni 2/4 takt o'Ichoviga dirijorlik qilib, notalar asosida kuylang:**

### JIYDA

**P. Po'latov** she'ri  
Shoshmasdan



Jiy - da - jiy - da, jon jiy - da. Chi - lon jiy- da, non jiy  
Jon- ga da - vo a- sal-san, do - ri - dar-mon, qon jiy-da.

**X. Po'latov** musiqasi

 **Quyidagi misolda qanday alteratsiya belgilari qo'llanganligini aniqlang:**

### OLMANI OTDIM

**O'zbek xalq kuyi**



Hazilomuz

## MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

### 1. Qaysi qatorda “Bayram va marosim” qo’shiqlari to‘g’ri ko‘rsatilgan?

- A) “Lapar”, “Oh, layli”, “Sovuq kimni izlaydi?”
- B) “Yor-yor”, “Kelinsalom”.
- C) “Maktab”, “Alla”, “Yalla”.

### 2. Baxshilar qanday qo’shiqlarni kuylaydilar?

- A) Laparlarni.
- B) Dostonlarni.
- C) Allalarni.

### 3. Ramazon aytimlari qachon kuyylanadi?

- A) To'y va marosimlarda.
- B) Ramazon oyida kun botganda.
- C) Chaqaloqlarni uxlatalish maqsadida.

### 4. O‘zbek xalq raqslari qaysi qatorda to‘g’ri ko‘rsatilgan?

- A) “Kamarinskaya”, “Gopak”, “Bulba”.
- B) “Lazgi”, “Dilxiroj”, “Tanavor”.
- C) “Polka”, “Mazurka”, “Shag‘ala”.

### 5. Quyidagi savollarga asoslanib, katakchalarni to‘ldiring!

1. 

				Q				
--	--	--	--	---	--	--	--	--

2. 

O'					
----	--	--	--	--	--

3. 

SH					
N					

4. 

				A	
--	--	--	--	---	--

5. 

				Y	
--	--	--	--	---	--

- 1. Damli puflama cholg'u.
- 2. Qoraqalpoq xalq o'yin-raqsi.
- 3. Puflama cholg'u.
- 4. Zarbli cholg'u.
- 5. Damli cholg'u.

## BILIB QO'YING!

1. Qo'shiq aytayotganda bosh va gavdani to'g'ri tuting.
2. Qo'shiq kuylayotganda nafasni tejab ishlating.
3. Qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz qiling. Bunda unli tovushlarni cho'zibroq, undosh tovushlarni esa qisqa aytishga harakat qiling.
4. Qo'shiq so'zlarini tushunib, uning ma'nosiga mos ravishda kuylang.
5. Jamoa bo'lib kuylayotganda o'z ovozingiz bilan birga sinfdosh o'rtoqlaringizning ham ovozini tinglab, hamohang aytishga intiling.
6. Qo'shiq kuylayotganda yoki uni o'rganish davomida o'qituvchingiz ko'rsatmalariga rioya qiling.

## MUSIQA LUG'ATI

**Aytim** — ovozda kuylash, aytish uchun mo'ljallangan barcha musiqiy namunalarning umumlashma nomi.

**Afg'on rubobi** — torli-chertma cholg'u, u mizrob (mediator) vositasida chalinadi. Uning kosasi chuqur o'yilgan va teri bilan qoplangan bo'ladi, kalta va yo'g'on dastasida to'rtta bog'lama pardasi bor. Dastasining yuqori qismida 6 ta yoki 7 ta qo'shimcha ("xas") pardalari ham bo'ladi. Afg'on rubobining 5 ta asosiy torlarida kuy chalinadi. Shuningdek, uning yon tomonidan

10-11 ta yordamchi yonquluoq simlari ham tortilgan bo'lib, ular aks-sado sifatida yangraydi.

**Bastakor** (fors. toj. — *basta* — bog'lov, *kor* — ish) — ma'lum parda va kuy-ohanglariga turli xil doyra usullari va so'z (g'azal)larni bog'lab, ashula, qo'shiq kabi asarlarni ijod etuvchi sozanda (yoki xonanda).

**Bulamon** — tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli cholg'u. Surnaydan hajmi kichik, puflamasi esa sibiziqniki kabi (tilchali) ekanligi bilan farq qiladi.

**Doyra** (boshqacha nomi — childirma) — zarbli sozning gardishi tok zangidan yoki o'rik, yong'oq yog'ochidan tayyorlanib, bir tomonidan buzoq (yoki kiyik, echki) terisi qoplanadi. Gardishining ichki tomoniga 40 dan ziyod ma'dan halqachalar osiladi.

**Dutor** — ikki torli chertma cholg'u, tut, o'rik yoki yong'oq daraxtidan tayyorlanadi. Dastagiga 13-14 ta ipakli parda bog'lanadi.

**Do'mbira** — dutor kabi ikki torli chertma cholg'u, dutordan o'ziga xos "bo'g'iq" tovushi, nisbatan qisqa va silliq (parda bog'lanmagan) dastasi kabilar bilan farq qiladi.

**Karnay** — misdan yasalgan damli (puflama) cholg'u bo'lib, uzunligi 2 metr va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. O'tmishda uning "tirsakli" (siniq chiziqli) ko'rinishi ham qo'llangan.

Olib yurishda qulay bo'lishi uchun 3 qismga ajraladi. Karnayda barmoqlar bilan bosiladigan parda-teshiklar bo'lmaydi.

Kuchli va yo‘g‘on ovozga egaligi sababli o‘tmishda to‘y marosimlaridan tashqari harbiy yurishlar va ov jarayoni vaziyatlarida ham qo‘llangan. Ansambl tarkibida tantanavor va ko‘tarinki kayfiyat tug‘diradi.

**Kompozitor** (lot. *compositor* – tuzuvchi, ijod etuvchi) — G‘arbiy Yevropa musiqa madaniyatida yuzaga kelgan musiqa ijodkorligi. Asosan opera, simfoniya, sonata, balet, oratoriya kabi ko‘p ovozli musiqiy janrlarda asarlar yozuvchi ijodkor.

**Nog‘ora** — loydan tuvaksimon shaklda yasalib, sopol darajasiga qadar pishiriladi. Kosasi kiyik (yoki boshqa hayvon) terisi bilan qoplanadi. Nog‘oralar hajmiga qarab katta (do‘l nog‘ora), o‘rtacha (ko‘s nog‘ora) va kichik (rez nog‘ora) turlarga bo‘linadi.

**Sato** — torli-kamonli cholg‘u. Tut daraxtidan o‘yib ishlangan kosasi va uzun dastagi tanburni eslatadi.

**Sibiziq** — oddiy qamishdan yasalgan damli cholg‘u. Puflama tomonidan tilcha kesilgan bo‘lib, old tomonida barmoqlar bilan bosiladigan uchta parda – teshikchasi bor.

**Surnay** — o‘rik yoki yong‘oq yog‘ochidan o‘yib yasaladi. Uning old tomonida yettita, ostida esa bitta parda-teshikchasi bor. Surnayda raqs kuylari, xalqimiz orasida keng tarqalgan ommaviy qo‘sish va ashulalarning kuylari hamda maqomlarning “surnay yo‘llari” ijro etiladi. Ansambl tarkibida ham surnay asosiy kuy yo‘llarini sadolantiradi.

**Tanbur** — torli chertma cholg‘u. Tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Uzun dastasida 16 tacha bog‘lama

pardasi bor. Kosa qopqog'iga 4 ta cho'p (xas) qo'shimcha parda yelimlangan bo'ladi. Tanburdag'i torlarning soni uchtadan oltitagacha bo'lishi mumkin. Hozirda ko'proq uch va to'rt simli tanbur qo'llaniladi. Torlar ko'rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus noxun vositasida chertiladi.

**Ud** — torli-chertma cholg'ularning eng ko'hnalaridan biri hisoblanadi. U tanbur va dutordan o'zining nok shaklidagi katta kosasi va silliq (parda bog'lamalari bo'Imagan) kalta dastasi bilan ajralib turadi. Ud sozida 11 ta tor bo'lib, shulardan beshtasi qo'shaloq tarzda, bittasi esa quyi yo'g'on tovush ornida qo'llaniladi.

**Chang** — torli-urma soz. O'tmishda an'anaviy qo'llanib kelingan chang cholg'usida jami 40 ta sim (tor) bo'lgan. Shulardan 13 tasi uchtadan birlashib taqsimlangan holda, bitta simi quyi yo'g'on torga ajraladi. Hozirgi davrda qo'llanilayotgan zamonaviy changda uch qatordan tortilgan 75 dona torlar mavjud. Changning torlari 2 ta cho'p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.

## MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.	
Abdulla Oripov she’ri, Mutual Burhonov musiqasi .....	4

## BIRINCHI CHORAK O‘zbek xalq aytimlari

1-dars. Vatanimizni madh etamiz .....	6
Oddiy musiqa shakllari. Band shakli .....	7
2-3-dars. Xalq aytimlari. Lapar.....	8
Oyijon. O‘zbek xalq lapari .....	9
Bizdan sizga kim kerak? V. Qurbonov she’ri, M. Nasimov musiqasi.....	10
Musiqaning ifoda vositalari.....	12
4-5-dars. Yalla.....	12
Yallama yorim. Ozbek xalq yallasi.....	13
Shaftoliga savolim. P. Mo‘min she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.....	14
Usul.....	15
6-7-dars. Ramazon marosimi aytimlari.....	16
Nisholda. R. Tolib she’ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	17
Dinamik belgilar.....	18
8-dars. Alla aytimlari.....	19
Oyijonim allasi. T. Mahmudov she’ri, F. Alimov musiqasi.....	21
“Alla” haqida rivoyat. .....	23
9-dars. Bolalar xalq o‘yin-qo‘schiqlari. ....	24
Yomg‘ir yog‘aloq. O‘zbek xalq qo‘shicig‘i. ....	25
Maktab. K.Turdiyeva she’ri, J.Abdurahmonov musiqasi. ....	26
Lad. Do major tonalligi.....	28

## IKKINCHI CHORAK Xalq qo‘schiqlari va raqslari

1-dars. Xalq qo‘schiqlari.....	29
Qo‘schiq. Oh, layli. O‘zbek xalq qo‘shicig‘i.....	30

Oftob chiqdi olamga. O'zbek xalq qo'shig'i.	31
Lya minor	32
2-3-dars. Xalq raqslari	33
Bulba. Belorus xalq o'yin-qo'shig'i.	34
Shag'ala. Qoraqalpoq xalq o'yin-qo'shig'i.	36
Vatan. X. Rahmat she'ri, X. Hasanova musiqasi.	36
Tonika	37
4-5-dars. Mehnat qo'shiqlari	38
Urchuq. O'zbek xalq qo'shig'i.	39
Yaxshi bola. P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	40
Turg'un va noturg'un tovushlar	41
6-7-dars. To'yamarosimi qo'shiqlari	42
Surnay navosi. Xalq kuyi	43
Yor-yor. Xalq qo'shig'i	44
Munojot. Navoiy g'azali, I. Ikromov musiqasi	45
Kulcha non. P. Mo'min she'ri, I. Hamroyev musiqasi	46
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	47

## UCHINCHI CHORAK

### Bayram va mavsum qo'shiqlari

1-2-dars. Qish fasli qo'shiqlari	49
Sovuq kimni izlaydi? P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	50
Biz askarmiz. I. Rahmon she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi	51
Uchtovushlik	52
3-4-dars. Baxshichilik san'ati	53
Onajonim, sog' bo'ling. M. Dadaboyev she'ri va musiqasi	54
Baxshi jasorati	56
5-6-dars. Bahor fasli qo'shiqlari	59
Boychechak. O'zbek xalq qo'shig'i	60
Bahor keldi. O'zbek xalq qo'shig'i	62
Lola. O'zbek xalq qo'shig'i	63
Bahorim. Yu. Rajabiy musiqasi	63
Navbahor. N. Narzullayev she'ri, G. Qo'chqorova musiqasi	64
7-8-dars. Bahor elchilari va tabiat	66
Arg'amchi. O'zbek xalq qo'shig'i	67
Qichqir, xo'rozim. Xalq qo'shig'i	68
Bulbulcha. M. Qo'chqorov she'ri, M. Nasimov musiqasi	69
Ton va yarim ton	70

9-10-dars. Bastakor Komiljon Jabborov.....	71
Diyorimsan. Habibiy so'zi, K. Jabborov musiqasi.....	72
Kapalak va Kamalak. N. Narzullayev she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....	74
Alteratsiya belgilari.....	76

## TO'RTINCHI CHORAK

### Xalq cholg'ulari

1-2-dars. Torli cholg'ular.....	77
Ko'klam keladi. P. Mo'min she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.....	82
Afg'on rubobi haqida rivoyat.....	84
3/4 o'Ichovi.....	85
3-4-dars. Damli cholg'ular.....	86
Chamandagul. O'zbek xalq qo'shig'i.....	88
Bahor. Z. Egamberdiyeva she'ri, Sh. Yormatov musiqasi.....	88
Nay sadosi.....	90
4/4 o'Ichovi.....	92
5-6-dars. Zarbli cholg'ular.....	92
3/8 o'Ichovi.....	93
Bolalik. Dilnur she'ri, X. Hasanova musiqasi .....	94
Doya.....	96
7-8-dars. Bastakor Faxriddin Sodiqov.....	98
Qorabayir. A. Po'lat she'ri, F. Sodiqov musiqasi.....	99
Yoz yaxshi. P. Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi .....	101
Jylda. P. Po'latov she'ri, X. Po'latov musiqasi .....	102
Mustahkamlash uchun topshiriqlar.....	103
Bilib oling!.....	104
Musiqa lug'ati.....	104

*O'quv nashri*

## **Oqilxon Ibrohimov**

### **MUSIQA**

4-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 7-nashri

*Muharrir Munojot Abralova*

*Musiqa muharriri Nazokat Utayeva*

Badiiy muharrirlar *Komoliddin Nurmanov, Izzat Yuldashev*

*Texnik muharrir Xosiyat Hasanova*

*Musahhih Dono To'ychiyeva*

*Sahifalovchi Umida Valijonova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016.  
2020-yil 30 aprelda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Pragmatica(TT) garniturasi. Kegli 14. Ofset bosma.  
8,19 shartli bosma taboq. 8,5 nashr tabog'i.  
Adadi 542535 nusxa. \_\_\_\_ raqamli buyurtma.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

*Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29, 241-19-42*

*Faks: (371) 241-82-69*

**www.gglit.uz      info@gglit.uz**

## **Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval**

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijara berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chmagan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

http://eduportal.uz

## SHAG'ALA

Quvnoq

Qoraqalpoq xalq o'yin-qo'shig'i



I - laysuv-da ba - liq bar A - lal- may-san sha-g'a - la.

VATAN




X. Rahmat she'ri

X. Hasanova musiqasi



Kuy - lay-man Va- tan haq - da, So'y-lay-man u-ning haq-  
da.



Osh - sin ya-na dov-ru - g'i, O'y-lay- man shu-ning haq  
- da



Va-tan qo-ra ko'-zim - dir,



Dil - dan chiq - qan so' - zim - dir.

Ar - doq - lay - man o - nam -  
 Va - tan, xal - qim, o' - zim - dir.  
 Niyati pok, ulug'dir,  
 Diyor gulga to'liqdir.  
 U tinchlikka bayroq dor,  
 Shum urushga yo'l yo'qdir!

### Naqarot:

Vatan qora ko'zimdir,  
 Dildan chiqqan so'zimdir.  
 Ardoqlayman onamdek,  
 Vatan – xalqim, o'zimdir.



### Tonika

Bolalar, agar e'tibor bergan bo'lsangiz, siz kuylayotgan ko'pgina qo'shiqlar ma'lum bir tovush bilan boshlanib, oxirida yana shu tovush bilan tugaydi. Bunday tovush qo'shiqning asosiy tayanch pardasi yoki tonikasi deb yuritiladi.

Gohida musiqa asari tonika tovushi bilan boshlanmasligi mumkin. Ammo asar oxirida tonika tovushi kelishi shart. Bunga siz kuylayotgan "Vatan" qo'shig'i misol bo'la oladi.



1. Xalq raqslari haqida nimalarni bilasiz?
2. "Vatan" qo'shig'inining mualliflari kim?